2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 188 (1514), 2025-yil 11-sentabr, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sankt-Peterburg shahri gubernatori Aleksandr Beglov boshchiligidagi Rossiya delegatsiyasini qabul qildi.



O‘zbekiston — Rossiya o‘zaro manfaatli hamkorligini yanada kengaytirish, eng avvalo, Sankt-Peterburg shahri bilan iqtisodiy kooperatsiya loyihalari va madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari o‘sayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi — o‘tgan yil yakunlariga ko‘ra hududlar darajasidagi eksport-import hajmi 20 foizga oshdi. Poytaxtimizda Ishbilarmonlik markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, Yangi Toshkent hududida “Peterburg mavzesi”ni barpo etish loyihasini tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Rossiya delegatsiyasining bu galgi tashrifi chog‘ida metallurgiya, uskunasozlik, yo‘l qurilishi, farmatsevtika va sog‘liqni saqlash, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi, logistika hamda boshqa sohalarda 23 ta kooperatsiya loyihasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” qabul qilindi.

Xususiy tibbiyot, ta’lim, kommunal xo‘jalik, raqamli texnologiyalar, migratsiya va turizm sohalarida amaliy hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha aniq takliflar qo‘llab-quvvatlandi.

Faol gumanitar aloqalarni davom ettirish va qo‘shma madaniy tadbirlarni muntazam tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi.

Joriy yil oktabr oyida ikki mamlakat hududlari kengashining ikkinchi yig‘ilishini samarali o‘tkazishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rishga kelishib olindi.

O‘zA

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH CHORALARI MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-sentabr kuni moliyaviy texnologiyalar sohasini rivojlantirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bugungi kunda dunyoda moliyaviy texnologiyalar bozori tez sur’atda rivojlanyapti. Uning hajmi bu yil 300 milliard dollardan, 2030-yilga borib, 600 milliard dollardan oshishi kutilmoqda.

Yurtimizda ham mazkur yo‘nalishda katta imkoniyatlar bor. 2018-yilda FinTech korxonalari 24 ta bo‘lgan, hozirgi kunda esa 103 taga yetgan. Joriy yil mahalliy korxonalarimiz 260 million dollardan ziyod xorijiy investitsiya jalb qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 4 barobar ko‘p.

O‘zbekiston Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida mingta startapni qo‘llab-quvvatlash, “Open banking” tizimini joriy qilish, moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha besh yillik strategiya ishlab chiqilishi aytilgan edi. Taqdimotda mutasaddilar shu boradagi rejalar va takliflar yuzasidan axborot berdi.

Strategiyani puxta ishlab chiqish uchun, avvalo, me’yoriy-huquqiy baza, moliyaviy texnologiyalarning hozirgi holati, infratuzilma va kadrlar masalasi tahlil qilinmoqda. Singapurlik ekspertlar jalb etilib, xalqaro tajriba o‘rganilmoqda. Shu asosda bu sohadagi milliy tamoyillar shakllantiriladi, institutsional arxitektura va idoralararo hamkorlik tartibi belgilanadi. Yakuniy maqsad barqaror, inklyuziv va raqobatbardosh moliyaviy xizmatlar ekotizimini yaratishdir.

Bugungi kunda moliya bozorini sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarisiz rivojlantirib bo‘lmaydi. Tahlillarga ko‘ra, bular orqali banklar daromadini 20 foizga, moliyaviy xizmatlar hajmini 30 foizga oshirib, xavflarni 15 foizga kamaytirish mumkin.

Davlatimiz rahbari banklarning texnologik imkoniyatlarini kengaytirib, raqamli xizmatlarni ko‘paytirish bo‘yicha ko‘rsatma berdi.

Sohada muvaffaqiyat mezonlarini aniqlash va boshqarish maqsadida Markaziy bankda Fintex ofisi faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha vazifalar belgilandi. Startaplar akseleratsiyasi, yangi g‘oyalar va investitsiyalarga sharoit yaratish uchun innovatsion xab tashkil qilinishi ma’qullandi. Bu chora-tadbirlar kelgusida O‘zbekistonning mintaqaviy fintex markaziga aylanishiga xizmat qiladi.

O‘zA

O‘ZBEKISTONDA ISHBILARMONLIK FAOLLIGI INDEKSI YAXSHILANMOQDA

So‘nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida barqaror o‘sish sur’atlari ta’minlanmoqda. Bu kabi yangilanishlar nafaqat poytaxt va unga yondosh, balki olis hududlarda ham namoyon bo‘lmoqda. Odamlar hayoti, turmush tarzi tubdan o‘zgarmoqda. Buni islohotlar viloyat, tuman darajasidan mahallalar darajasiga tushirilgani mahsuli deyish mumkin.


Yillar davomida yechimini kutayotgan muammolar “xonadonbay”, “mahallabay” o‘rganilmoqda, ularni kompleks yechishga qaratilgan qator dasturlar hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Orolbo‘yining eng chekka ovulidan tortib, Andijonning eng chekka qishloqlaridagi ichki yo‘llarga ham asfalt yotqizilishi, ichimlik suv tarmoqlari tortilishi, elektr tarmoqlari modernizatsiya qilinishi islohotlar islohotlar uchun emas, amalda inson qadri uchun ro‘yobga chiqarilayotganining amaldagi ifodasidir.

Aholi muammolari yechimiga, oddiy fuqarolar taqdiriga bunday odilona va oqilona yondashuv xalqimiz kayfiyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xavotiri arib, o‘zi, farzandlari kelajagiga ishonchi ortmoqda. Odamlarning hayotga, yashashga munosabati o‘zgarib, tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka ishtiyoqi yuksalmoqda.

Davomi 2-betda



2025-yil avgust oyida O‘zbekiston Respublikasi hududlarida ishbilarmonlik faolligi indeksi



Nuqtayi nazar



O‘ZBEKISTON — SHHT: BARQARORLIK FALSAFASIDAGI UYG‘UNLIK

O‘tgan yillarda SHHTda mustahkam shartnomaviy-huquqiy baza ishlab chiqildi, siyosat, xavfsizlik, savdo va investitsiya, madaniy-gumanitar jabhalarda samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Tashkilot safi Hindiston, Pokiston, Eron va Belarus bilan kengaydi. Yevroosiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy xilma-xilligini ifodalovchi sherik va kuzatuvchi mamlakatlar ham qo‘shma faoliyatga jalb etildi.

Tashkilotning bunday jozibadorligi siri juda oddiy: bu bunyodkorlik falsafasiga qat’iy sodiqlik, teng huquqli hamkorlik uchun ochiqlik, uchinchi davlatlarga qarshi yo‘naltirilmaslik, har bir xalqning milliy xususiyatlari, o‘ziga xosligini hurmat qilishdir. Eng muhim yutug‘i genetik kodi, ya’ni “Shanxay ruhi”dir. U o‘zaro hurmat, ishonch, tenglik, maslahatlashuv, madaniyatlar xilma-xilligini hurmat qilish va birgalikda rivojlanishga intilishni anglatadi.

Davomi 3-betda

Kun nafasi

“YASHIL” TEXNOLOGIYALAR – TABIAT MUSAFFOLIGINI SAQLASH OMILI

Bugun biz fan va texnologiyalar yuksak taraqqiy etgan, innovatsiyalar hayotimizga tobora chuqur kirib kelayotgan davrda yashayapmiz. Bu o‘zgarishlar to‘kis va farovon hayot kechirishimizga imkon yaratmoqda. Ammo turmushimizni obod, umrimizni charog‘on etayotgan ushbu qulayliklar ona tabiatning inqiroziga sabab bo‘layotgani achinarli. Zero, sanoatning jadal rivojlanishi ortidan sayyoramizning ekologik muvozanatiga jiddiy putur yetdi.

Tirikligimizning muhim manbai bo‘lgan suv, havo, tuproq ifloslanmoqda va tabiiy zaxiralar kamayyapti. Bu muammolarga yechim topish uchun insoniyat sanoat va texnika taraqqiyotining shunday yo‘llarini kashf etishi kerakki, bu yo‘llar insoniyatning zavoli emas, istiqboli uchun xizmat qilishi zarur.

BMT tashabbusi bilan bu yo‘nalishda jahon miqyosida ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Ekologik muvozanatni barqarorlashtirish, global iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlarini yumshatish bo‘yicha xalqaro konvensiyalar qabul qilinib, ijrosini ta’minlash choralari ko‘rilyapti.

Davomi 2-betda

BIRINCHI O‘RINDAGI GAPLAR

yoxud yurtimizda inson kapitaliga qanday e’tibor berilmoqda?

EL-YURT UMIDI JAMG‘ARMASI

Bugungi kunda mamlakatlarning uzoq muddatli rivojlanishi haqida gap ketganda, neft, gaz yoki oltin haqidagi suhbatlar asta-sekin ikkinchi o‘ringa tushib bormoqda. Uning o‘rnini boshqa omil — inson kapitali egallamoqda. O‘zbekistonda unga mavhum tushuncha sifatida emas, balki islohotlarning asosiy resursi, o‘sishning bosh manbai, ta’lim va kasbiy tayyorgarlikka strategik sarmoya deb e’tibor berilyapti.

Bunda yoshlarning hayotiy, texnik, innovatsion va tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirishga urg‘u qaratilayotgani diqqatga sazovor. Teng imkoniyatlar yaratish orqali ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda faol ishtirok etishi rag‘batlantirilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, “ijtimoiy lift”lar yaratilmoqda, iqtidorli yoshlarning O‘zbekistonda o‘z ijodiy, ta’limiy va iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun barcha sharoitlar mavjud.

Davomi 5-betda

Tadqiqot

O‘ZBEKISTONDA ISHBILARMONLIK FAOLLIGI INDEKSI YAXSHILANMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Mahallalarda oilaviy tadbirkorlikni, ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan dasturlar, ijtimoiy daftarlar kambag‘allik domiga, umidsizlikka tushib qolgan minglab oilalarni o‘tkir ijtimoiy muammolar botqog‘idan olib chiqqani bugun ayni haqiqat.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – iqtisodiyotning o‘sish nuqtalaridan biri, aholi bandligini ta’minlashning asosiy manbai. Shu bois, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga, odamlarimizda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Shu yil avgust oyida davlatimiz rahbari tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda ham ta’kidlaganidek: “Bir haqiqatni unutmasligimiz lozim: har bir soha, har bir hudud, har bir mahalla — faqat tadbirkor harakat qilganida, ularga quloq tutib, ishonch bildirilganida rivojlanadi, obod bo‘ladi”.

Bundan anglashiladiki, ishbilarmonlikka, tadbirkorlikka ustuvor ahamiyat qaratilib, odamlarimizni ish bilan ta’minlash, shu orqali har bir xonadonga farovonlik olib kirish yo‘lidan borilmoqda. Aslida, bozor iqtisodiyotiga asoslangan dunyo tajribasida shunday. Sinalgan va o‘zini oqlagan tajriba.

Maqsad aniq va yo‘nalish to‘g‘ri belgilansagina, ko‘zlangan muvaffaqiyatlarga bosqichma-bosqich erishiladi. Zero, o‘tgan davrda minglab mikro va kichik korxona qisqa muddatda yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, katta-katta kompaniyalar bilan raqobat qila boshlagani ham fikrimiz tasdig‘idir.

Xususan, 1600 ta kichik korxona bir yil ichida aylanma mablag‘ini 10 milliard so‘mdan oshirib, birdaniga o‘rta korxonaga, 143 tasi esa 100 milliard so‘mdan oshirib, yirik korxonaga aylandi. Yana 122 ta kichik korxona oldinga ikki qadam sakrab, yirik biznes safiga qo‘shildi.

O‘tgan yili aylanmasi 1 trillion so‘mdan oshgan 203 ta korxona bor edi. Bu yilning o‘tgan olti oyida ularga qo‘shimcha yana 47 ta korxona 400-500 milliard so‘mlik marrani zabt etdi.

Biznesni “soya”dan chiqarish bo‘yicha yangi mexanizmlar joriy qilinishi tufayli 139 mingta korxonada ish o‘rinlari 811 mingtaga ko‘payib, 2,2 milliondan 3 millionga yetdi. 273 mingta korxona ish haqi fondini 22 foiz yoki 4,6 trillion so‘mga oshirdi. O‘tgan yili xususiy sektorda o‘rtacha oylik 4 million so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kunda 5 million so‘mga yaqinlashdi.

Erishilgan bu yutuq va muvaffaqiyatlar mustaqil o‘tkaziladigan xalqaro va milliy tadqiqotlarda ham o‘z tasdig‘ini topayotgani quvonarli.

Jumladan, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan kuni kecha 2025-yil avgust oyi bo‘yicha Ishbilarmonlik faolligi indeksi natijalari e’lon qilindi. Unga ko‘ra, Ishbilarmonlik faolligi indeksi 1029 birlikni tashkil etib, iyul oyidagiga nisbatan 2,9 foiz hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 30,9 foiz ortgan.

Bu xo‘jalik tovar-xomashyo birjasida xomashyo sotib olish jadalligi 14,2 foiz ortgani, faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar soni 0,4 foiz ko‘paygani bilan izohlanadi.

Shuningdek, 2025-yil avgust oyida Ishbilarmonlik faolligi indeksi 9 ta hududda o‘tgan oydagiga nisbatan o‘sishi kuzatilgan. Jumladan, Sirdaryo (72,3 foiz), Navoiy (45,5 foiz), Andijon (38,3 foiz) viloyatlari va Toshkent shahrida (36,7 foiz) sezilarli darajada o‘sish bo‘ldi.

Banklararo to‘lov operatsiyalari soni 5 ta hududda ortgan. 2025-yil avgust oyida 5 ta hududda yuridik shaxslar o‘rtasidagi bank operatsiyalari soni o‘tgan oydagidan oshgan. Xususan, Qashqadaryo (8,4 foiz), Samarqand (5,3 foiz), Buxoro (1,7 foiz) va Sirdaryo (0,7 foiz) viloyatida o‘sish kuzatilgan.

2025-yil avgust oyida barcha turdagi faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar soni o‘tgan oydagiga nisbatan 2038 taga ortib, 490 ming 622 birlikni tashkil etgan.

Yirik tadbirkorlik korxonalari soni esa 23 taga oshgan. Hisobot davrida kichik korxonalar soni 392 ming 415 tadan 395 ming 603 taga ortgan (o‘sish 3188 ta).

Shuningdek, 2025-yilning avgust oyida yuridik shaxslar tomonidan 398 ta tovar belgisi va tovar nomi ro‘yxatga olingan.


O‘zbekistonda Ishbilarmonlik faolligi indeksini hisoblash amaliyoti 2009-yildan boshlangan bo‘lib, iqtisodiyot holatini tezkor baholash uchun samarali vosita sifatida qo‘llaniladi. Indeks iqtisodiyotning barometri sifatida xizmat qiladi va ishbilarmonlik muhitini real vaqt rejimida aks ettiradi.

Ishbilarmonlik faolligi indeksi to‘rt asosiy yo‘nalish — bank operatsiyalari, tovar-xomashyo birjasidagi faoliyat, korxonalar soni va yangi savdo belgilari ro‘yxatdan o‘tkazilishi bo‘yicha ma’lumotlarni uyg‘unlashtiradi. Shu tarzda indeks qisqa muddatli o‘zgarishlarni aniqlab, rasmiy statistika e’lon qilinishigacha iqtisodiy dinamikaning umumiy manzarasini yaratish imkonini beradi. Indeks o‘sishi ishbilarmonlik muhiti kengayishi va biznes kutilmalari mustahkamlanishidan, pasayish esa ehtiyotkorlik kuchayishi va qisqarish xavfidan signal beradi.

Sirasini aytganda, yuqoridagi tadqiqot natijalari islohotlar joylarda qanday samara berayotgani, iqtisodiyotga, xalqimiz hayotiga qay darajada naf keltirayotganini aniq ko‘rsatib bergani bilan ahamiyatli.

Yunus BO‘RONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

2025-yil avgust oyida IFI o‘tgan oyga nisbatan 2,9 foizga ortdi



Bugunning gapi

Bugun kitobxonlikni ommalashtirish haqida ko‘p gapiryapmiz. Prezident tashabbusi bilan kitobxonlik alohida mukofotlar bilan taqdirlanmoqda. Ko‘rsatkichlar nashriyotlar soni ko‘payayotgani, chop etilayotgan kitoblar soni va adadi ham tobora oshayotganini ko‘rsatmoqda. Sohaga 25 million dollar miqdorida to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya kiritilgan. Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan boshlab nashriyot korxonalari foyda solig‘ini to‘lashdan 5 yil muddatga ozod etildi.

NOSHIRLIK ISHIDA YANGILIK

Shu bilan birga, chop etilayotgan kitoblarning mazmun-mundarijasi, saviya va mafkurasi nechog‘liq qoniqarli? Bu savol bejiz qo‘yilgani yo‘q.

Kitobxonlik madaniyati rivojlanayotgani sari mavzu dolzarbligi ham oshmoqda. Biz qanday kitoblarni o‘qiyapmiz, yangi chiqayotgan badiiy, ilmiy, tarixiy nashrlarimiz adabiyot talablari, ilmiy izlanishlar, sohalarda erishilgan yutuqlar bilan uyg‘unmi? Savod-chi, savod masalasi qanday bo‘lmoqda? Ochig‘i, ko‘plab noshirlik faoliyati bilan mashg‘ul tadbirkorlarimiz ba’zida to‘g‘ridan to‘g‘ri internet ilovalari orqali o‘girilgan badiiy asarlarni chop etayotganiga nima deysiz? Ularda adabiyot ilmidan boxabar kadrlar faoliyat ko‘rsatmayotgani esa yanada achinarli.

E’tibor bering, so‘nggi 4-yilda nashriyotlar soni 3,5 barobarga ko‘payib, 590 taga yetgan. Bir tomondan quvonarli raqam: shundan 90 foizi (531 ta) xususiy. Ularning ishlab chiqarish quvvati 2 barobar oshib, har yili o‘rtacha 11 ming nomda 40 million nusxada adabiyotlar nashr etilmoqda. Bu juda katta ko‘rsatkich.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, nashriyotlarning 248 tasida bosh muharrir lavozimi mavjud emas. Uning huquqiy maqomi, unga qo‘yiladigan talablar va ularning mas’uliyatiga oid normalar yo‘qligi sababli kitoblarda qonunchilik va ijtimoiy axloqqa zid ma’lumotlar bot-bot uchramoqda.

Ishchi guruhlar 124 holatda bolalarga oid kitoblarda yosh xususiyatlariga mos bo‘lmagan va ular ongiga salbiy ta’sir qiladigan jumlalar qo‘llanilganini aniqlagan.

Shuningdek, chop etilgan ayrim kitoblarning (142 holat) amaldagi davlat standartlari talablariga mos kelmasligi, ko‘plab kitoblarda tarixiy faktlar noto‘g‘ri tarzda berilayotgani (46 ta), tibbiyotga oid nashrlarda ham noaniq va ilmiy isbotlanmagan ma’lumotlarning uchrashi (29 ta) bu borada yangi qonuniy-me’yoriy hujjatlarga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Oliy Majlis Senati tomonidan ma’qullangan “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun aynan noshirlik sohasidagi korxonalarda bosh muharrirning huquqiy maqomi, unga qo‘yiladigan talablar va ularning mas’uliyatiga oid yangi 15^1-modda bilan to‘ldirilmoqda. Unga ko‘ra:

— bosh muharrir nashriyot tahririyatining ijodiy faoliyatiga rahbarlik qiladigan, nashriyotning mavzu rejalari ishlab chiqilishi hamda nashrlarning qonunchilik talablariga, noshirlik faoliyati sohasidagi texnik reglamentlar (milliy standartlar) talablariga muvofiq tayyorlanishi uchun mas’ul ekanligi;

— bosh muharrir lavozimiga oliy ma’lumotga va noshirlik faoliyatida kamida uch yil ish stajiga ega bo‘lgan shaxs tayinlanishi mumkinligi;

— bosh muharrir tashkilotning muassisi (muassislari) yoki rahbari tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod qilinishi;

— nashriyot nashrlarini chiqarish to‘g‘risidagi qaror bosh muharrir tomonidan qabul qilinishi;

— bosh muharrir nashriyotning ijodiy faoliyati uchun javobgar ekanligi;

— bosh muharrir nashrlarning mavzu yo‘nalishlaridan kelib chiqib, tegishli ekspertlar va olimlarning yoki ilmiy-tadqiqot muassasalarining taqrizlarini mustaqil ravishda olishga yoki muallifdan (mualliflardan) ularning taqdim etilishini talab qilish huquqiga egaligi nazarda tutilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, bundan buyon nashriyotlar bosh muharrirsiz faoliyat yuritmaydi va bu faoliyatda bosh muharrir nashrga tavsiya etilgan kitoblarning badiiy, ilmiy va ma’naviy qiymatiga, qolaversa, u mustaqil ravishda taqrizlar olish yoki muallifdan taqdim etishni talab qilish orqali asarning ilmiy va madaniy qimmatini obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, kitobxonlarning ishonchini qozonishga va sohaning obro‘sini oshirishga yordam beradi.

Husan ERMATOV,
Oliy Majlis Senati a’zosi



Kun nafasi

“YASHIL” TEXNOLOGIYALAR – TABIAT MUSAFFOLIGINI SAQLASH OMILI

Boshlanishi 1-betda

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalishi ham aynan ana shunday ezgu maqsad — kelajak avlodlarga barqaror, xavfsiz, farovon dunyoda yashash imkonini taqdim etishga yo‘naltirilgani bilan ahamiyatlidir. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda keng qamrovli islohotlar qilinmoqda. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi alohida bobda mustahkamlandi. Davlatning atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha vazifalarni amalga oshirish majburiyatlari belgilab qo‘yildi.

Hozirda ekologik qonunchilik takomillashtirilib, ko‘plab dastur va loyihalar ro‘yobga chiqarilmoqda. Bu jarayonda iqtisodiy o‘sishning resurslar tejamkorligiga asoslangan “yashil” rivojlanish modeliga o‘tish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shu maqsadda joriy yil Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb e’lon qilindi va davlat dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirilyapti.

Davlat dasturi doirasida suv, havo, tuproq sofligini asrash, obihayotni tejash, tabiiy muvozanatni saqlash, yer osti va yer usti boyliklaridan oqilona foydalanish, yashil hududlarni kengaytirish bo‘yicha izchil ishlanyapti. Xususan, “Yashil makon” dasturi doirasida shaharlar hududining kamida 30 foizini ko‘kalamzor maydonlarga aylantirish, qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni 100 foiz tatbiq etish ko‘zda tutilgan. Tez sur’atlarda o‘sib borayotgan iqtisodiyotimizning energetikaga talabini to‘liq qondirish uchun “yashil” quvvatlar barpo etilyapti. 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazish reja qilingan.



Havoni ifloslantiruvchi yana bir manba – avtotransport vositalaridan chiqayotgan is gazining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish maqsadida ikki bosqichli “Toza-havo” tadbiri o‘tkazilyapti. Ushbu tadbirning birinchi bosqichida 35 mingdan ortiq avtotransport vositasi tekshiruvdan o‘tkazildi. Oylikning ikkinchi bosqichida yana 35 mingta avtotransport vositasi tekshiruvdan o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Bu borada ko‘zlangan natijalarga erishishda sanoat korxonalarini zamon talablari asosida modernizatsiyalash va ekologik sof texnologiyalarga o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Zero, ushbu tizimdagi qator korxonalar hali-hanuz atmosferani ifloslantirishda asosiy manbalardan biri bo‘lmoqda. Jumladan, Toshkent shahri va viloyatida atmosferaga ta’siri yuqori bo‘lgan 1233 ta sanoat korxonasi faoliyat yurityapti. Ularni modernizatsiya qilish bugungi kunning muhim talabidir.

Joriy yilgi davlat dasturida ana shunday dolzarb ekologik muammolarni hal etish borasida muhim chora-tadbirlar belgilangan. Xususan, 2025-yil 1-maydan boshlab Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyat markazlarida ekologiyaga ta’siri yuqori bo‘lgan yangi ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish taqiqlandi. Bundan maqsad aholi gavjum yashaydigan shaharlar ekologiyasini muhofaza qilish, tabiat musaffoligini saqlashdir.

Ekologiya muammosi hudud yoki mintaqa tanlamaydi. Shu bois, tabiiy muvozanatni saqlashga yo‘naltirilgan loyihalarni keng miqyosda ro‘yobga chiqarish talab etiladi. Shundan kelib chiqib, barcha hududlarda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash ishlari bajarilmoqda. Bu jarayonda sanoat korxonalari va ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiyalash va sof ekologik rivojlanish mexanizmlarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Vazirlar Mahkamasining “Sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ishlarda muhim dasturilamal bo‘layotir. Qarorga muvofiq, atmosfera havosi ifloslanishi fon monitoringini amalga oshirish uchun avtomatlashgan kichik stansiyalar o‘rnatilyapti.

Atrof tabiiy muhitni ifloslantiruvchi manbalarning monitoringini sifatli yuritish uchun ekologiyaga ta’siri bo‘yicha I va II toifalarga mansub xo‘jalik yurituvchi subyektlarga havoga chiqadigan tashlamalarni tahlil qiluvchi avtomatik monitoring stansiyalari o‘rnatildi. Yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalari va lokal suv tozalash inshootlari barpo etilib, mavjudlari modernizatsiya qilinmoqda. Sanitar himoya zonalari avtomatik statsionar kuzatuv postlari bilan jihozlanayotir.

O‘tgan vaqt mobaynida yer qa’ridan foydalanish samaradorligini oshirish va uni muhofaza qilish, mineral xomashyo resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash, shuningdek, hududlarda zamonaviy sanoat ishlab chiqarishini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratish yuzasidan qator kompleks chora-tadbirlar maqsadli amalga oshirildi. Yer qa’rini kompleks geologik o‘rganish, uzoq istiqbolga mo‘ljallangan mineral xomashyo bazani rivojlantirish va takror ishlab chiqarish dasturlarini samarali amalga oshirish sohasida davlat siyosatini yuritish bo‘yicha yagona geologiya xizmati tashkil qilindi.

Toshkent viloyatida atmosfera havosiga tashlamalar miqdorida ham sanoat korxonalarining ulushi yuqori. Shu bois, ekologik loyihalarni amalga oshirishda ushbu muammolarga yechim topishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, atmosfera havosiga ta’sir qiluvchi 2000 dan ko‘proq manba faoliyati nazoratga olingan.

Viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi ma’lumotiga ko‘ra, shu maqsadda viloyatda faoliyat yuritayotgan 272 ta tadbirkorlik subyektida atmosferaga ustuvor turg‘un ifloslantiruvchi manbalardan chiqadigan tashlamalarni tahlil qiluvchi avtomatik monitoring stansiyalari, sanitar himoya zonalarida avtomatik statsionar kuzatuv postlari hamda yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalarini o‘rnatish belgilangan. Bugungi kunda korxonalarning 34 tasida yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalari o‘rnatildi va 13 tasi modernizatsiya qilindi.

Misol uchun, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ ishlab chiqarish korxonalarida aspiratsiya va ventilyatsiya tizimlari ta’mirlandi. Chang-gaz tozalovchi uskuna va shamollatish tizimi samaradorligi pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali atmosferaga 120 tonna ifloslantiruvchi modda tashlanishining oldi olindi. “Ammofos — Maksam” AJda ham ta’mirlash ishlari bajarilgan va atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar tashlanmasini kamaytirishga erishildi.

Issiqxona xo‘jaliklari, sanoat korxonalari, qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda ijtimoiy soha obyektlari faoliyatida, shuningdek, yoqilg‘i-energetika resurslaridan foydalanishda atmosferaga chiqarilayotgan tutun, chang va zaharli gazlar miqdorini kamaytirish nazoratga olingan. Maxsus ishchi guruh a’zolari tomonidan bu yo‘nalishda tegishli inshootlarda xatlov o‘tkazilib, profilaktika ishlari olib borilyapti. Bu jarayonda atmosfera havosiga tashlamalar belgilangan me’yorlardan ortiqcha tashlanganlik holatlari aniqlanganda, qonunchilik talablariga muvofiq tegishli choralar ko‘rilmoqda.

Xususan, dudburondan foydalanish qoidalarini buzgan 39 ta issiqxona egasiga nisbatan ma’muriy jarimalar qo‘llanildi, 33 tasining faoliyati to‘xtatilib, 292 tasi bo‘yicha ekologik talablarga muvofiqlashtirish yuzasidan rasmiy ogohlantirish berildi.

Havoni ifloslantiruvchi yana bir manba — avtotransport vositalaridan chiqayotgan is gazining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish maqsadida ikki bosqichli “Toza-havo” tadbiri o‘tkazilyapti. Ushbu tadbirning birinchi bosqichida 35 mingdan ortiq avtotransport vositasi tekshiruvdan o‘tkazildi. Oylikning ikkinchi bosqichida yana 35 mingta avtotransport vositasi tekshiruvdan o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Yana bir muhim ekologik loyiha — atrof-muhitga ta’siri bo‘yicha I-II toifalarga kiruvchi yirik sanoat korxonalari tomonidan “yashil belbog‘”lar barpo etilayotgani ham samarasini bermoqda. Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan ushbu toifaga mansub 173 ta yirik sanoat korxonasi atrofiga 1 million 210 ming tup daraxt ko‘chati ekilib, “yashil belbog‘”lar barpo etish rejalashtirilgan edi. Hozirgacha 760,7 ming tup ko‘chat ekildi. Bu ishlar kuz mavsumida davom ettiriladi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri





www.yuz.uz — yuz.uznews — yuz_official — yuz.uz_news — yuz.uz

Nuqtayi nazar

O‘ZBEKISTON — SHHT: BARQARORLIK FALSAFASIDAGI UYG‘UNLIK



Ismoil SAIFNAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Ushbu konsepsiya SHHTni mintaqaviy tashkilotdan to‘laqonli xalqaro tashkilotga aylantirdi. Tashkilotning mana shu oltita asosiy prinsipi boshqa davlatlar uchun ham jalb etuvchi omildir. Ushbu tashkilotga qo‘shilishga tayyor davlatlar yildan yilga ko‘payib bormoqda. U harbiy blok emas, uchinchi davlatlarga qarshi qaratilmagan. Tashkilotning muvaffaqiyati ham shunda.

Ana shu qadriyatlarga tayanib, BMTning markaziy muvofiqlashtiruvchi roli ostida xalqaro huquqqa asoslangan, yanada adolatli ko‘p qutbli dunyo qurilishida ishtirok etmoqda. Ushbu global maqsadga erishishga katta hissa qo‘shish uchun Yevroosiyoda teng va bo‘linmas xavfsizlik arxitekturasini shakllantirish, jumladan, SHHTga a’zo davlatlarning yaqin hamkorligiga erishish ko‘zda tutilgan. Uning ijtimoiy-iqtisodiy poydevori sifatida tuzilma doirasida milliy taraqqiyot strategiyalari va mintaqaviy integratsiya tashabbuslarini birlashtirishdek Katta Yevroosiyo sherikligini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, boshqa mamlakatlarning ushbu tuzilma bilan u yoki bu formatda o‘zaro hamkorlikka qiziqishi tobora o‘sib bormoqda.

Nisbatan qisqa muddatda SHHT rivojlanishning uzoq yo‘lini bosib o‘tdi va global siyosiy hamda iqtisodiy voqelikning ajralmas qismi bo‘lib qoldi. Bugun u dunyodagi eng yirik mintaqaviy tashkilot. A’zo mamlakatlarning umumiy hududi 35 million kvadrat kilometrdan oshadi. Bu Yevroosiyo qit’asi hududining 60 foizdan ortig‘i, degani. Unga a’zo mamlakatlarning umumiy aholisi 3,5 milliarddan ko‘p. Bu dunyo aholisining qariyb yarmidir. Tashkilot doimiy a’zo 10 ta, kuzatuvchi 2 ta va muloqot bo‘yicha sherik 14 ta davlatni birlashtirgan. 26 mamlakatdan iborat “SHHTning katta oilasi” uch qit’ani — Osiyo, Yevropa va Afrikani qamrab olgan.

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida SHHT ochiq, pragmatik va keng ko‘lamli manfaatli hamkorlik yo‘lini amalga oshirish nuqtayi nazaridan har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. Binobarin, mamlakatimizning tashkilotga nisbatan zamonaviy strategiyasi tashabbuskorlik, konstruktivlik, pragmatizm va hamkorlikka ochiqlik kabi asosiy tamoyillarga asoslanadi. O‘zbekiston, avvalo, barcha ishtirokchi mamlakatning ehtiyojlariga xizmat qiladigan istiqbolli yo‘nalishlarda amaliy hamkorlik o‘rnatish orqali tashkilotning salohiyatini to‘liq ochib berishdan manfaatdor. O‘zbekiston mintaqalararo savdo, sanoat kooperatsiyasi, innovatsiya, “yashil” va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kabi muhim yo‘nalishlarda ko‘p tomonlama hamkorlikni faollashtirishga qaratilgan muhim takliflari orqali SHHT salohiyatini yanada mustahkamlashga intilayotgani shundan dalolat beradi.

O‘zbekiston raisligi davri (2021-2022-yillar) da davlatimiz rahbari ilgari surgan tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida 14 ta yangi konseptual hujjat ishlab chiqildi. Ular tashkilot doirasidagi hamkorlikni mazmunan boyitish va institutsional kengaytirishga qaratilgan. Transport bog‘liqligini rivojlantirish bo‘yicha SHHT strategiyasi, Mintaqalararo savdoni rivojlantirish rejasi, Infratuzilmani rivojlantirish dasturi, “SHHT Ezgu niyat elchisi” institutini tashkil etish kabilarni alohida ta’kidlash zarur.

Prezidentimizning barcha tashabbusi mantiqan o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi. Masalan, ichki savdoni rivojlantirish orqali savdo to‘siqlarini bartaraf etish, texnik reglamentlarni yaqinlashtirish va bojxona tartib-taomillarini raqamlashtirishga erishish mumkin.

O‘z navbatida, SHHT doirasida o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash bo‘yicha Toshkent tomonidan faol ilgari surilgan va surilayotgan tashabbuslar tashkilot hududidagi ulkan transport va tranzit salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan. Ushbu sa’y-harakatlar orqali O‘zbekiston hamkorlari bilan birga “O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy”, “Termiz — Mozori sharif — Kobul — Peshovar”, “Lanchjou — Qashqar — Irkeshtam — O‘sh — Andijon — Toshkent — Mari” va hozirgi geoiqtisodiy sharoitda o‘ziga xos strategik ahamiyatga ega boshqa transport yo‘laklarini amaliyotga tatbiq etishni jadallashtirish niyatida. Bu loyihalarning ro‘yobi Yevroosiyo mintaqasidagi davlatlarning o‘z mahsulotlarini Xitoydan Yevropagacha bo‘lgan ulkan hududga arzon va qulay tashish imkoniyatini kengaytiradi.

O‘zbekiston Prezidentining Tyanszin shahrida bo‘lib o‘tgan SHHT va “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvlardagi nutqi ishtirokchi davlatlar manfaatiga mos keladigan pragmatik kun tartibini belgilab berdi. Tashkilotni “Global Janub” bilan o‘zaro hamkorlik uchun ochiq platformaga aylantirish g‘oyasi, shuningdek, SHHT Yagona transport makonini shakllantirish hamda Sharq — G‘arb va Shimol — Janub yo‘laklarini ulashgacha bo‘lgan ishlab chiqarish va logistika zanjirlarini kengaytirish bo‘yicha takliflar bevosita Yevroosiyo bilan aloqalarni diversifikatsiyalash va tranzit xatarlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu tashabbuslar Janubiy, Markaziy hamda Janubi-sharqiy Osiyodagi mintaqaviy loyihalar bilan birlashish uchun real imkoniyatdir. O‘zbekistonning SHHT makonidagi o‘zaro bog‘liqlik strategiyasi Afg‘onistonning butun Yevroosiyo uchun noyob iqtisodiy va tranzit mavqeini tiklashga ham xizmat qiladi. Afg‘oniston mintaqada uzoq muddatli xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashning asosiy omili ekaniga shubha yo‘q. SHHTga a’zo biror-bir davlat Yevroosiyo markazidagi beqarorlik o‘chog‘i yanada alangalanishi va Afg‘oniston hududidan qo‘shni davlatlar xavfsizligiga kelib chiqadigan tahdiddan manfaatdor emas. Bugungi voqelik SHHTdan yanada aniq sa’y-harakatlarni amalga oshirish va Afg‘onistonni mintaqaviy tashabbuslar, jumladan, infratuzilma loyihalariga jalb etishni talab qiladi. Demak, “SHHT — Afg‘oniston” muloqot guruhi faoliyatini qayta tiklash taklifi strategik ahamiyatga ega.

Mazkur muloqot guruhi ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shma yondashuvlarni ishlab chiqish va afg‘on jamiyati bilan muloqot qilish imkonini beradi. Bu esa, shubhasiz, mintaqaning umumiy xavfsizligiga ta’sir qiladi. Shu bois, SHHT doirasida Afg‘onistonning urushdan keyingi rivojlanish strategiyasiga doir konsolidatsiyalashgan yondashuvlarni ishlab chiqish, tabiiyki, O‘zbekiston Prezidentining tashabbusida o‘z aksini topdi. Davlatimiz rahbari ilgari surgan taklif va tashabbuslar SHHT makonida xavfsizlik, barqaror rivojlanish, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Falastin muammosi bo‘yicha pozitsiya ham e’tiborga molik. Rasmiy Toshkent zudlik bilan o‘t ochishni to‘xtatish, insonparvarlik yordami va BMT rezolyutsiyalari asosida ikki davlat kelishuvini amalga oshirish tarafdori. Bu O‘zbekistonning ishonchli va tinchliksevar davlat sifatidagi maqomini mustahkamlaydi.



O‘zbekiston Prezidenti uzoqni ko‘ra olish, siyosiy yetuklik, adolat va hamjihatlik g‘oyalariga sadoqatini namoyon etdi. Davlatimiz rahbarining tashabbuslari nafaqat SHHTning asosiy xalqaro tashkilot sifatidagi nufuzini mustahkamlash, balki butun Yevroosiyo makonini rivojlantirishning yangi yo‘nalishlarini belgilashga qodir.

“Yashil” sanoatlashtirish va SHHT doirasida barqaror hamkorlik bo‘yicha takliflar ham Osiyo, Afrika va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday “ko‘prik” logistika, energetika va yuqori texnologiyalar sohasidagi yangi loyihalar uchun mustahkam poydevordir.

Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston yangi transqit’aviy yo‘laklarning asosiy chorrahasiga aylanib bormoqda. Ushbu o‘zgarish jarayonini ikkita asosiy omil belgilaydi: SHHTdagi faol ishtirok va Transkaspiy yo‘lining strategik ahamiyati. Ularning uyg‘unligi O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro mavqeini mustahkamlash uchun noyob imkoniyatlar yaratadi.



O‘zbekiston uchun Transkaspiy yo‘nalishi Kaspiy dengizi portlari va Janubiy Kavkaz mamlakatlari orqali Turkiyaga olib boradigan qo‘shimcha logistika yo‘lini ochadi. Keyinchalik u savdo geografiyasini kengaytirib, Yevropa bozorlariga chiqish imkonini beradi.

Transkaspiy yo‘nalishini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida so‘nggi 5 yilda O‘zbekiston va Yevropa o‘rtasida Kaspiy dengizi orqali tashilgan yuklar hajmi 4 barobar oshdi. 2025-yilning birinchi yarim yilligida O‘zbekistonning Kaspiy dengizi orqali eksport-import yuk tashish hajmi qariyb 500 ming tonnani tashkil etdi. Bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 7 foiz ko‘pdir.

Xitoy va Rossiya kabi yirik davlatlar, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Hindiston, Pokiston va Eronni birlashtirgan Shanxay hamkorlik tashkiloti O‘zbekiston uchun o‘z transport tashabbuslarini ilgari surish maqsadida ideal maydon vazifasini o‘taydi.

Tyanszin shahrida o‘tkazilgan SHHT sammiti va Tyananmen maydonida nishonlangan Ikkinchi jahon urushidagi g‘alabaning 80 yilligiga bag‘ishlangan tantanalar jahon hamjamiyati diqqat-e’tiborini tortgan yirik va muhim siyosiy voqea bo‘ldi. Yutuqlar, natijalar, prognozlar haqida ko‘p gapirildi. Shu bilan birga, tarixni alohida shaxslar yaratishini tushunish kerak. Eng avvalo, nufuzli xalqaro doiralar va ekspertlar O‘zbekiston Prezidentining ana shu xislatlari, muhim tashabbuslarining ahamiyatini e’tirof etmoqda.

Davlatimiz rahbarining izchil, mantiqiy o‘zaro bog‘liq siyosati ichki va tashqi siyosatda ijobiy natijalarga erishish imkonini berdi. Bu SHHT Davlat rahbarlari kengashi majlisida so‘zlagan nutqida ham yaqqol o‘z ifodasini topdi. Prezidentimiz Tyanszinda O‘zbekistonning muammolarni birgalikda hal etishga qaratilgan va rivojlanish istiqbollarini yaqqol namoyon qilgan tashabbuslarini ilgari surdi.

O‘zbekiston yetakchisi, avvalo, a’zo davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda “Shanxay ruhi” mavjudligini buyuk Konfutsiyning “O‘zingni qaror toptirish, boshqalarga yordam berish, muvaffaqiyatga intilish, boshqalarning muvaffaqiyatiga hissa qo‘shish” degan hikmatli so‘zlari orqali tasdiqladi.

Tyanszin sammitining yakuni sifatida Toshkentda SHHT MATT negizida doimiy faoliyat yurituvchi organ — a’zo davlatlar xavfsizligiga xavf va tahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha universal markazni tashkil etish to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi. Uning huzurida SHHT Axborot xavfsizligi markazi ham ochilmoqda.

O‘zbekiston tashkilot doirasida tobora muhim o‘rin egallamoqda. Mamlakatning ichki va tashqi siyosatidagi strategik tuzatishlar va chuqur o‘zgarishlar uning rivojlanishi, barqarorligi va aholi turmush sharoitini yaxshilash barobarida mintaqaviy hamkorlikning butun arxitekturasi va rivojlanish yo‘nalishlariga tobora chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘sib borayotgan geosiyosiy notinchlik va xalqaro tartib o‘zgarishlari muhitida O‘zbekistonning strategik tanlovi va tashqi siyosiy yo‘nalishlari nafaqat milliy, balki mintaqaviy ahamiyatga ega bo‘lib, SHHTning kelajakdagi rivojlanish yo‘li va samaradorligini ko‘p jihatdan belgilab beradi.

Mintaqaviy yetakchilik izchil mustahkamlanishi O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi diplomatik o‘zgarishlari va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatidir. Mintaqaviy masalalar va ko‘p tomonlama qabul qilish jarayonida samaraliroq ishtirok etish, shu orqali mintaqaviy hamkorlikka yanada pragmatik yechimlarni joriy etish imkonini berdi. O‘zbekistonning mintaqaviy nizolarni hal etish, muloqot va maslahatlashuvlarni rivojlantirishdagi konstruktiv roli barcha ishtirokchilar tomonidan e’tirof etildi. Markaziy Osiyoda ichki hamkorlikni rivojlantirishda mamlakatimizning faol pozitsiyasi va amaliy qadamlari SHHT doirasida mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish uchun qulay muhit va shart-sharoit yaratdi.

Prezidentimizning xavfsizlik sohasidagi tashabbuslarini alohida ta’kidlash joiz. SHHTning Yadro xavfsizligi bo‘yicha deklaratsiyasini qabul qilishga chaqiriq O‘zbekistonning global barqarorlik masalalari bo‘yicha mas’uliyatli pozitsiyasini aks ettiradi. Bu nafaqat BMT shafeligida yadroviy qurollarni tarqatmaslik rejimini mustahkamlaydi, balki barqaror taraqqiyot manfaatlari yo‘lida tinch atom energetikasini rivojlantirish uchun zamindir.

O‘zbekiston terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish, chegaralarni boshqarish va kiberxavfsizlik kabi sohalarda boy va qimmatli tajriba to‘plagan, xavfsizlik sohasida SHHT hamkorligini rivojlantirish uchun muhim amaliy misol va modellarni taqdim etgan. Jumladan, O‘zbekiston tomonidan taklif etilgan mintaqaviy aksilterror axborot almashish platformasini tashkil etish va chegara nazorati bo‘yicha hamkorlikni kuchaytirishga oid tashabbuslarni a’zo davlatlar yakdil qo‘llab-quvvatladi. Bu tashabbuslar SHHT hamkorligini yanada pragmatik va samarali yo‘nalishda rivojlantirishga turtki berdi. Bunday aniq qadamlar mintaqadagi xavfsizlikning umumiy darajasini oshirish bilan birga ishtirokchi davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va strategik muvofiqlikni mustahkamladi.

Mamlakatimizning iqtisodiy hamkorlikni harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi mavqei muttasil mustahkamlanib, kengayib bormoqda.



mexanizmlarda ishtirok etish, yaxshi qo‘shnichilik va mintaqaviy integratsiyani faol ilgari surish mamlakatning Markaziy Osiyodagi ta’siri va jozibadorligini oshirdi.

Ushbu ijobiy siljish O‘zbekistonning SHHT doirasidagi ishtirokini sezilarli darajada oshirib, kun tartibini shakllantirish, qoidalar va qarorlar O‘zbekiston tizimli iqtisodiy islohotlar va ochiqlik strategiyasini amalga oshirish bilan bir qatorda global va mintaqaviy iqtisodiyotni boshqarishda ham faol ishtirok etmoqda. Shu orqali SHHT doirasidagi mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikka yangi dinamika va turtki bag‘ishlamoqda.

Madaniy almashinuvlarning tashabbuskori sifatidagi o‘rnimiz ham alohida e’tiborga loyiq. O‘zbekiston boy madaniy merosi va ko‘p asrlik tarixiy an’analari bilan Buyuk ipak yo‘lidagi muhim sivilizatsiya markazi sifatida SHHT madaniy hamkorligida o‘ziga xos va muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan turli madaniy tadbirlar va ilmiy loyihalar SHHT doirasida sivilizatsiyalar muloqotining muhim platformalari va muvaffaqiyatli namunalarini taqdim etib, mintaqaviy hamkorlikni yanada rang-barang qilish va xalqqa yo‘naltirish imkonini berdi.

O‘zbekiston a’zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro muloqot, tushunish va siyosatni muvofiqlashtirishga ko‘maklashuvchi, shuningdek, qo‘shma konsensus hamda amaliy yechimlarni shakllantirishga hissa qo‘shuvchi koordinator vazifasini o‘taydi. Barcha tomonlar manfaatlarini muvozanatlashtirish va eng oliy umumiy xususiyatni izlash qobiliyatida namoyon bo‘lgan diplomatik donoligi murakkab xalqaro sharoitda SHHTning birligi, hamkorligi va barqaror rivojlanishini saqlashga salmoqli hissa qo‘shdi. Tashkilot doirasidagi hamkorlikka qo‘shgan hissasi va faol ishtiroki orqali nafaqat o‘zining xalqaro mavqei va mintaqaviy ta’sirini sezilarli darajada oshirdi, balki tashkilot rivojiga yangi dinamika qo‘shdi va innovatsion g‘oyalarni olib kirdi.

Prezidentimizning SHHT sammitidagi mazmunli va serqirra nutqida ilgari surilgan har bir taklif nafaqat deklarativ, balki amaliy xarakterga ega bo‘lib, hamkorlikni mustahkamlash va tashkilot faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ayniqsa, iqtisodiyot va innovatsiyalar sohasidagi takliflar nihoyatda dolzarb. Xususan, muhim materiallar mintaqaviy markazi, energetika konsorsiumi va venchur kompaniyalar tarmog‘ining tashkil etilishi ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning yangi istiqbollarini ochadi. Bu qadamlar SHHTni haqiqiy sanoat kooperatsiyasi va texnologik yutuq platformasiga aylantiradi.

Gumanitar hamkorlik yo‘nalishidagi tashabbuslar ham ahamiyatli. Xalqaro xalq ijodiyoti festivalini o‘tkazish, “SHHT universiteti”ning onlayn kampusini ishga tushirish, sayyohlik yo‘lagini rivojlantirish g‘oyalari e’tirofga loyiq. Bular “xalq diplomatiyasi” institutini mustahkamlovchi, bilim, madaniy boyliklar almashinuvi uchun shart-sharoit yaratuvchi va ishtirokchi davlatlar o‘rtasida chinakam hamjihatlik tuyg‘usini shakllantiradigan loyihalardir.

E’tiborni tortadigan yana bir jihat bor: O‘zbekiston rahbari SHHT ulkan iqtisodiy, intellektual, resurs va texnologik salohiyatga ega bo‘lib, xalqaro maydonda tobora muhim o‘rin tutayotganini ta’kidladi. Global inqiroz va mojarolar avj olishi sharoitida SHHTga a’zo davlatlarning o‘zaro anglashuvi va birdamligi mintaqada tinchlikni saqlashning asosiy omilidir. Davlatimiz rahbari SHHT teng huquqli muloqot va o‘zaro hurmat makoni bo‘lib qolayotganini, bu esa zamonaviylikning eng murakkab muammolariga muvozanatli yechimlar topishga imkon berishini qayd etdi.

SHHTning ovozi yanada qat’iy yangrashi uchun davlatimiz rahbari tashkilotni izchil kengaytirishga chaqirdi va uning muvaffaqiyati ochiqlik va keng hamkorlikka, jumladan, global Janub davlatlari bilan hamkorlikka yo‘naltirilganida ekanini ta’kidladi. Prezidentimiz nutqida xalqaro vaziyatning chuqur tahlili va amaliy yechimlar uzviy mujassamlashganini alohida ta’kidlash joiz. U zamonamizning asosiy muammolari — o‘zaro ishonch inqirozi, ko‘p tomonlama institutlarning zaiflashuvi, jahon iqtisodiyotining parchalanishini to‘g‘ri belgilab berdi va ularni bartaraf etishning aniq yo‘llarini taklif qildi.

Shu tariqa O‘zbekiston Prezidenti uzoqni ko‘ra olish, siyosiy yetuklik, adolat va hamjihatlik g‘oyalariga sadoqatini namoyon etdi. Davlatimiz rahbarining tashabbuslari nafaqat SHHTning asosiy xalqaro tashkilot sifatidagi nufuzini mustahkamlash, balki butun Yevroosiyo makonini rivojlantirishning yangi yo‘nalishlarini belgilashga qodir. Shu ma’noda, Tyanszindagi SHHT sammiti, shuningdek, “SHHT plyus” uchrashuvi tuzilma tarixida muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu sammitning samarali natijalari barqarorlikni yanada mustahkamlash, ko‘p qirrali sheriklikni kengaytirish va barcha mamlakatlarning izchil taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Munosabat



Jasurbek OTANIYOZOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bugungi kunda O‘zbekiston va Xitoy munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekistonning Xitoy bilan aloqalari keng qirrali va qamrovli bo‘lib, energetika, transport-logistika, sog‘liqni saqlash, ta’lim, savdo, ijtimoiy xavfsizlik shular jumlasidan. Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida 2025-yil 2-sentabr kuni Pekin shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning rasmiy delegatsiyalar a’zolari ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.



HAMOHANG MAQSADLAR VA HAMKORLIKNING ZAMONAVIY MODELI

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida juda samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilganini alohida ta’kidlash joiz. Davlatlararo, hukumatlararo, idoralararo qator bitimlar sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun zarur huquqiy asos yaratmoqda. Ikki mamlakat kompaniyalari ishtirokida sanoat kooperatsiyasi, infratuzilmani modernizatsiyalash, transport, farmatsevtika, telekommunikatsiya, yuqori texnologiyali sanoat parklari loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Qadimiy Ipak yo‘lini qayta tiklash va rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar ko‘lamini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashga qaratilgan ushbu g‘oya tarixan qisqa davrda ko‘plab tarafdorlariga ega bo‘lgan holda xalqaro hamkorlikning yangi modeliga aylandi. Chunki Xitoyning Markaziy Osiyo, Yevropa va Afrika mintaqasida joylashgan 70 dan ortiq mamlakatni o‘zaro bog‘lovchi mavjud iqtisodiy yo‘laklarni yanada takomillashtirish, yangi transport va savdo yo‘llarini yaratishni ko‘zlagan bu xalqaro tashabbusi yurtimizning barcha davlatlar va mintaqalar bilan o‘zaro manfaatli, teng huquqli hamkorlikni rivojlantirish maqsadlariga to‘la mos keladi.

“Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi aynan mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, tovarlar, kapital, xizmatlar va texnologiyalarning erkin harakatini bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida savdo va investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, keng ko‘lamli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, transport va kommunikatsiyalar sohasidagi mavjud infratuzilmadan samarali foydalanish, davlatlarning tranzit salohiyati va energiya tizimlarini rivojlantirish kabi dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan.

Bu tashabbus dengizga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish yo‘liga ega bo‘lgan davlatlar bilan ham, qit’aning ichkarisida joylashgan mamlakatlar bilan ham integratsiya loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutadi. “Bir makon, bir yo‘l” 2013-yilning sentabr va oktabr oylarida XXR Raisi Si Szinpinning Qozog‘iston va Indoneziyaga tashriflari davomida uzoq muddatli strategik rejalar sifatida ilk bora ilgari surildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad Buyuk ipak yo‘li doirasida qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikda “iqtisodiy zanjirni qurish” hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish yo‘lida hamkorlikning to‘rtta yo‘nalishi — siyosiy maslahatlashuvlar, transport infratuzilmasi, savdoni osonlashtirish va pul muomalasi masalalari qamrab olindi. Xitoyning har tomonlama strategik sherigi sifatida O‘zbekiston “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini birinchilardan bo‘lib qo‘llab-quvvatladi.



Xitoy tashabbusi dastlabki qamrovidan farqli ravishda ancha kengaydi, geografik jihatdan dunyoning deyarli barcha mintaqalarini qamrab oldi. Tashabbus tarafdorlari bo‘lgan mamlakatlar mintaqaviy jihatdan noyob tabiiy resurslar, ishlab chiqariladigan mahsulotlar, yangi innovatsion ishlanmalar, malakali ishchi kuchi va inson kapitali, texnologik imkoniyatlar borasida yuqori salohiyatga egadir.

So‘nggi yillarda temir yo‘llardan, dengiz portlaridan va raqamli infratuzilmalardan foydalanish bo‘yicha hamkorlik kengayishi kuzatildi. Shuningdek, savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarni yanada rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda hamkorlik boshlandi.

Yurtimizning xalqaro munosabatlardagi hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston tomonidan o‘zaro manfaatli hamkorlikni ta’minlashga xizmat qiladigan ko‘p tomonlama munosabatlarni kengaytirish bo‘yicha ilgari surilgan barcha taklif va tashabbuslar mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik hamda ishonchni mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekiston — Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish, transport sohasidagi mavjud imkoniyatlardan birgalikda va to‘laqonli foydalanish, aloqalarni yanada kengaytirish nafaqat mintaqaviy, balki global darajada barqarorlikka erishishda muhim omildir.

Erkin savdoni kengaytirish, infratuzilma rivojiga e’tibor qaratilayotgani ikki mamlakatning faol hamkorligini kuchaytirmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatlardagi mavjud resurslardan to‘laqonli foydalanish, xalqaro ta’minot zanjirlarini mustahkamlash va iqtisodiy integratsiyalashuvni kuchaytirishga qulay sharoit yaratadi. Shunga mos ravishda savdo-iqtisodiy, texnologik va moliyaviy-investitsiyaviy hamkorlik jadallashmoqda. O‘zbekiston 200 ga yaqin davlat bilan savdo aloqalariga ega bo‘lsa, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida mamlakatimiz umumiy tashqi savdo aylanmasining 17,7 foizi aynan Xitoy ulushiga to‘g‘ri keladi. 2024-yilda ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 14 milliard dollardan oshdi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘zaro yetkazib berish orqali bu ko‘rsatkichni 20 milliard dollarga yetkazish vazifasi turibdi.

Davlat rahbarlarining joriy muzokaralari jarayonida Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston strategik temir yo‘li qurilishining amaliy bosqichi boshlangani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bu transport yo‘lagining ishga tushishi mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu loyiha mintaqalararo aloqalarni mustahkamlashga yordam berib, Markaziy Osiyo davlatlarining transport yo‘laklarini diversifikatsiya qilish va mintaqaning xalqaro transport-tranzit markazi sifatida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari Xitoyga rasmiy tashrifi doirasida “China Gold”, “China Coal Resources”, “China Datang Corporation”, “Tianjin Rail Transit Group”, “Poly Changda”, “Tianjin Urban Construction”, “Jinchuan Group”, “China Synfuels”, “Jinchuan”, “ST Wonderful”, “Mizuda”, “World Agriculture”, “Dongzhu Ecology” va boshqa mahalliy yetakchi kompaniyalar rahbarlari bilan uchrashdi. Uchrashuvda energetika, geologiya, qishloq va suv xo‘jaligi, kimyo, zargarlik sanoati, jamoat transportini modernizatsiyalash, infratuzilmani rivojlantirish va turizm sohalarida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Xitoy mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish dasturlarini amalga oshirish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va sanoatning eksport salohiyatini yuksaltirishda faol ishtirok etmoqda. Bu jarayonda Xitoyning yetakchi sanoat kompaniyalari bilan uzoq muddatli va o‘zaro manfaatli aloqalarni, birinchi navbatda, yuqori texnologiyaga asoslangan tarmoqlarni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Buning natijasida investitsiya loyihalari portfeli 60 milliard dollardan ziyodni tashkil etmoqda. 2024-yilda umumiy qiymati 10 milliard dollardan ortiq 64 ta loyiha ishga tushirildi. Mamlakatimiz hududlarida qo‘shma texnoparklar va maxsus industrial zonalar faoliyat yuritmoqda, “BYD” elektromobillarini ishlab chiqarish kengaytirilmoqda.

Energetika, jumladan, qayta tiklanadigan energiya, neft-gaz, kimyo, avtomobilsozlik, elektrotexnika, qurilish materiallari ishlab chiqarish, telekommunikatsiya, sog‘liqni saqlash, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi kabi yo‘nalishlarda faol investitsiyaviy hamkorlik mavjud. Buning natijasida milliy iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida Xitoy kapitali ishtirokidagi qo‘shma korxonalar tobora ko‘payib, hozirgi kunda samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Xususan, Xitoy kapitali ishtirokida 3700 dan ortiq qo‘shma korxona faoliyat yuritayotgan bo‘lib, bu mamlakatimizdagi chet el kapitali ishtirokidagi mavjud barcha kompaniyalar umumiy sonining qariyb 25 foizini tashkil etadi. Infratuzilma, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi, “yashil” energiya sohalarida yirik qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

Uglevodorod xomashyosini qazib olish va qayta ishlash bo‘yicha yuqori texnologik loyihalarni mamlakat ichida va tashqi bozorlarda amalga oshirishga ixtisoslashgan dunyoning eng yirik energetika kompaniyalaridan biri “China National Petroleum Corporation” (CNPC) hisoblanadi. Ushbu kompaniyaning mamlakatimizga kiritgan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalari hajmi 5 milliard dollardan oshdi. Istiqbolda mazkur kompaniya bilan investitsiyaviy hamkorlik portfelini yanada kengaytirish va yer osti tabiiy gaz saqlash inshootlarini qurish, infratuzilmani modernizatsiyalash, zamonaviy metrologik standartlar hamda innovatsion yechimlarni joriy etish loyihalarini ilgari surish maqsad qilingan.

Mamlakatlar o‘rtasida savdo, sanoat kooperatsiyasi, transport-logistika, innovatsiya, “yashil” va raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish kabi muhim yo‘nalishlarda hamkorlikni faollashtirish savdo-iqtisodiy salohiyatni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Raisi Si Szinpinning Pekin shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralari yakunida o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab ikki tomonlama hujjatlar imzolandi. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bilan bog‘liq keng ko‘lamli masalalar, imzolangan hujjatlar va erishilgan kelishuvlar O‘zbekiston — Xitoy munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Shuningdek, savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini o‘zaro bog‘lash, ilm-fan, tibbiyot, ta’lim va turizm sohalaridagi sheriklikni kengaytirish, texnik-iqtisodiy va muvofiqlikni baholash sohasidagi hamda inson resurslarini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyot sohalaridagi hamkorlikni mustahkamlash, “yashil” energetika, qishloq xo‘jaligi va infratuzilma kabi sohalarda ilg‘or innovatsion loyihalarni amalga oshirish masalalaridagi hamkorlikni jadallashtirishga alohida e’tibor qaratilishi mintaqaviy darajadagi aloqalarni faollashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish, mamlakatlarning qulay investitsiyaviy va biznes salohiyatidan samarali foydalanish asosida savdo-iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish istiqbolda mintaqaviy darajadagi iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirish va taraqqiyotni rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunyodkorlik

Marg‘ilon shahrida Renovatsiya dasturi asosida qurilgan ko‘p qavatli turar joy binolarining dastlabki xonadonlari egalariga topshirildi.
Hududda 365 kun davomida katta bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari bajarildi, tashabbus quloch yozdi. Bu bejiz emas, albatta.

ENDI ULARNING FAYZLI, CHAROG‘ON UYI BOR

FARG‘ONALIKLAR RENOVATSIYA DASTURIDAN MAMNUN

Prezidentimiz o‘tgan yili 11-12-iyul kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi chog‘ida aholi farovonligi, yurt obodligi yo‘lida yangi uy-joylar qurilishini ko‘paytirish borasida taklif bergan edi. Ya’ni Renovatsiya dasturini amalga oshirish, eskirgan binolar o‘rnida zamonaviy uylar qurish orqali aholi hayot tarzini yaxshilash nazarda tutilgandi. Bugun ushbu takliflar ijrosi yuzlab oilalarga quvonch, shodlik olib kirdi.

Xususan, Marg‘ilon shahri “Ipakchi” mahalla fuqarolar yig‘inidagi eski uylar o‘tgan asrning o‘rtalarida qurilgani bois, aksariyati tor, pastqam edi. Bu uylarda hatto kundalik hayot tarzi uchun zarur sharoit ham bo‘lmagan. Xom g‘ishtdan ko‘tarilgan bir qavatli bino nafaqat eskirgan, balki oilalar uchun torlik ham qilib qolgandi. Bitta xonadonda ikki-uch oila, 10-12 jon bir amallab kun ko‘rib kelayotgandi. Bunday manzara, tabiiyki, shahar ko‘rkiga soya solib turgandi. Endi bu yerdagi holat mutlaqo boshqacha. Eski uylar aholi roziligi bilan Renovatsiya dasturi asosida buzildi. O‘rnida ko‘rkam ko‘p qavatli uy-joylar, dam olish, xizmat ko‘rsatish inshootlari qurib bitkazildi. Shuningdek, keng va ravon yo‘llar, tabiiy gaz, toza ichimlik suv, elektr ta’minoti bilan bog‘liq zarur infratuzilma tarmoqlari o‘tkazildi.

— Bu yerda 68 ta bir qavatli eski uy mulkdorlarning roziligi bilan buzildi. Ular o‘rnida Renovatsiya dasturi asosida zamonaviy



440 xonadondan iborat 11 ta ko‘p qavatli uy qurildi, — deydi Marg‘ilon shahar hokimligi qoshidagi uy-joylarni ro‘yxatga olish, almashtirish va taqsimlash bo‘limi boshlig‘i Orifjon Yo‘ldoshev. — Qisqa muddatda hamma havas qiladigan zamonaviy uylar majmuasi barpo etilib, aholi kundalik hayot tarzi uchun kerakli bo‘lgan shart-sharoit yaratib berildi. Renovatsiya dasturi asosida uy-joyi buzilgan mulkdorlarga shu yerning o‘zidan zamonaviy turar joy berish bo‘yicha o‘zaro kelishuvlar imzolandi. Unga ko‘ra yer uchastkasida joylashgan bino va inshootlar davlat va jamoat ehtiyojlari uchun buzilishi munosabati bilan o‘rniga mulkdorga ko‘p qavatli uylardan xonadon xususiy mulk qilib berildi.

Marg‘ilonda birinchi mahalla massivi qurilishi ishlarini samarali tashkil etish uchun maxsus shtab faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu shtab ish ko‘lamini nazorat qiladi. Shuningdek, mulk egalarining huquq va manfaatlarini himoya qilish, mavjud masalalarga yechim topish bilan shug‘ullanadi. Bu yerda mulk egalarining huquqlari, imtiyoz va imkoniyatlari bilan bog‘liq barcha masalalar yuzasidan bepul huquqiy maslahat beriladi, xizmatlar ko‘rsatiladi.

“Ipakchi” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Zulfiyaxon Mirsaidovaning ota-onasidan meros qolgan uch xonali uyda uch oila amallab kun ko‘rib kelgan. Eski binolar buzilib, o‘rnida muhtasham uylar qad ko‘targach, bu oilalarning hayot tarzi tubdan o‘zgardi.

— Bolaligimiz xotiralari bilan bog‘liq yerlar, do‘st-birodar, qo‘ni-qo‘shnilar biz uchun qadrdon, — deydi Zulfiyaxon aya quvonch bilan. — Uyimiz Renovatsiya dasturi asosida buzila boshlaganda “Ko‘chada qolamizmi?” degan xavotirimiz bor edi. Bu hadik o‘rinsiz chiqdi. Bizga yangi qurib bitkazilgan ko‘p qavatli uylardan uchta xonadon berildi. Har bir xonadon ikki-uch xonadan iborat. Bu juda katta imkoniyat. Hamma sharoiti bo‘lgan joyda emin-erkin yashashning zavqi boshqacha-da. Shukr, mana shunday imkoniyat, sharoit yaratib bergan Prezidentimizdan cheksiz minnatdormiz.



Muslimbek TO‘LANOV olgan suratlar.

Rahmatjon Eminjonov ham shu mahalladagi katalakdek uyda ikki farzandi va kelin-nevaralari bilan yashab kelgan. Umumiy foydalanuvdagi suv, oshxona, boshqa kommunal xizmatlar ko‘plab noqulayliklarga sabab bo‘lardi. Endi bu qiyinchiliklar ortda qoldi. Mustaqilligimizning 34 yilligi bu oilaga o‘zgacha quvonch, shodlik olib keldi. Oilaga Renovatsiya dasturi asosida qurilgan ko‘p qavatli uylardan alohida uchta xonadon ajratib berildi.

— Xususiy mulk bo‘lgan o‘nta eski uy-joy o‘rnida 98 xonadonli 9 qavatli uylar qurdik, — deydi “Safohouse” MCHJ rahbari Jahongir Kamolxonov. — Mulkdorlar bilan imzolangan kelishuvga ko‘ra, har bir oilani belgilangan me’yor talablari asosida bepul uy-joy bilan ta’minlayapmiz. Bundan tashqari, dam olish xiyobonlari, yashil yo‘laklar, bolalar o‘yin va sport maydonlari, avtoturargohlar qurdik. Bularning barchasi mamlakatimizda inson qadr-qimmati qanchalik e’tibor, e’zoz topganidan dalolat beradi.

Qo‘qon shahri “G‘ishtli masjid” mahalla fuqarolar yig‘inidagi uchta ikki qavatli eski turar joy binosi o‘rnida Renovatsiya dasturi asosida bunyodkorlik ishlari boshlangan edi. Oradan bir yil o‘tib, uchta yetti qavatli, 119 xonadonli uylar to‘liq bitkazildi. Mustaqilligimizning 34 yillik bayramida bu uylar foydalanishga topshirildi.

Renovatsiya oddiy so‘z emas. Uning zamirida aholi turmush tarzi va farovonligini oshirish, hududlarni obodonlashtirish, hamma narsa inson va uning baxt-saodati uchun degan ezgu tamoyil mujassam. Mamlakatimiz bo‘ylab quloch yozgan hayotbaxsh islohotlar ko‘hna shaharlar, mahallalarga ulug‘vorlik, ko‘tarinkilik baxsh etish bilan birga, aholining uy-joyga talabi va ehtiyojlarini ta’minlash, ular uchun munosib sharoit yaratishga xizmat qilayotir.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

EL-YURT UMIDI JAMG‘ARMASI

BIRINCHI O‘RINDAGI GAPLAR

YOXUD YURTIMIZDA INSON KAPITALIGA QANDAY E’TIBOR BERILMOQDA?

Dolzarb mavzu



Gulnoza ISMOILOVA,
“El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda ta’lim borasida katta o‘zgarishlar ro‘y berayotganini magistraturada tahsil olayotgan talabalar soni so‘nggi yetti yilda 7 barobar, ayollar orasida esa 11 barobar oshganidan ham anglash qiyin emas.

Bundan tashqari, 1991-yildan 2016-yilgacha bo‘lgan 25 yil davomida budjet hisobidan chet elda atigi 800 nafar talaba o‘qigan bo‘lsa, 2018-2025-yillarda bu ko‘rsatkich qariyb uch barobar ko‘paydi. 2 ming 300 nafardan ortiq talaba “El-yurt umidi” jamg‘armasi tufayli bunday imkoniyatga ega bo‘ldi. Dastur kengayishda davom etmoqda.

Mamlakatimizda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasiga o‘zbekistonlik yoshlarning “TOP-500”talik oliygohlarga kirish bo‘yicha Markaziy Osiyoda 1-o‘rinni egallashi yaqqol misol sifatida keltirish mumkin. Bularning barchasi stipendiyalar, grantlar va xalqaro stajirovkalarni o‘z ichiga olgan iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimi yaratilgani tufayli ro‘yobga chiqmoqda.

Yangi formatsiya yetakchilarini tayyorlash

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 5-maydagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasining qayta tashkil etilishi yangi yo‘nalishning ramziga aylandi. Qayta tashkil etish kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan. Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi, Boshqaruv samaradorligi agentligi bilan hamkorlikda inson kapitaliga investitsiya kiritish platformasi sifatida kadrlar tayyorlash bo‘yicha yagona klaster shakllantirildi.

Ushbu jamg‘armaning asosiy vazifasi — dunyoning nufuzli ta’lim va ilmiy markazlarida ta’lim olgan yangi avlod yetakchilari, mutaxassislar jamoasini shakllantirishdan iborat. Ular Vatanga qaytib, ilg‘or bilimlarni joriy etish, davlat institutlarini mustahkamlash, sog‘liqni saqlash, ta’lim, iqtisodiyot, raqamlashtirish, madaniyat va boshqa muhim sohalarni yangi bosqichga ko‘tarish, yangi O‘zbekistonni barpo etishga hissa qo‘shish uchun faoliyat olib boradi.

O‘zbekistonlik yoshlar Oksford va Garvarddan tortib, Tokio va Berlingacha bo‘lgan dunyoning nufuzli universitetlarida ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ular STEM, energetika, transport, urbanizatsiya, huquq, davlat boshqaruvi, tibbiyot, agrotexnologiyalar kabi o‘nlab dolzarb yo‘nalishlarni o‘zlashtirmoqda.

Hech kim ortda qolmaydi

“El-yurt umidi” jamg‘armasi shunchaki xorijda ta’lim olish uchun stipendiya beradigan tuzilma emas, balki kelajak milliy kadrlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan to‘laqonli strategik institut. Uning faoliyati ta’limni moliyalashtirish doirasidan ancha kengaygan: ishtirokchilar soni sezilarli darajada oshirildi, tayyorgarlikning ustuvor yo‘nalishlari aniq belgilandi, qo‘llab-quvvatlash shakllari, jumladan, grantlar, davlat organlari xodimlari uchun maqsadli stajirovkalar tizimlashtirildi.

Xorijdagi xalqaro universitetlar, ilmiy va ekspert doiralari, davlat va xususiy tuzilmalar bilan hamkorlik jamg‘armani rivojlantirish strategiyasining muhim qismi hisoblanadi. Bu O‘zbekistonni dunyoda imkoniyatlar, muloqot, yoshlar tashabbuslari va intellektual kuch mamlakati sifatida tanitish uchun xizmat qiladi.

Chunki xorijda ta’lim olish faqat shaxsiy muvaffaqiyat emas. Bu xalqaro hamkorlik ko‘priklari, madaniyatlar va g‘oyalar muloqoti, global maydonda O‘zbekistonning ochiq, taraqqiyparvar davlat sifatidagi qiyofasini ilgari surish imkoniyatidir. Jamg‘armaning har bir stipendiati mamlakatning norasmiy elchisiga, qadriyatlar, madaniyat, an’analar va islohotchilik ruhini dunyoga ulashuvchi insonga aylanadi. U O‘zbekistonning ochiq va ilg‘or davlat sifatidagi tasvirini dunyoga yetkazadi.

Yangi strategiya doirasida hududlardan kelgan yoshlarni, ayollarni, ilm-fan va davlat boshqaruvi sohasi vakillarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqdaki, toki har bir iste’dod, uning geografik joylashuvi yoki ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, e’tiborga olinsin. Bu barqaror rivojlanishning global maqsadlariga, jumladan, “Hech kim ortda qolmaydi” degan muhim tamoyilga mos keladi.



Shaffoflik

Jamiyatda va axborot makonida shunday fikr tobora ko‘proq yangramoqda: dunyoning TOP-100 yoki TOP-300 universitetlarida o‘qish. Bu obro‘ emas, balki sifat va aloqalar tarmog‘idir.

Birinchidan, bunday oliy o‘quv yurtlari ilg‘or metodologiyalar va tadqiqot bazalaridan foydalanishni kafolatlaydi. Ikkinchidan, ular keyinchalik hamkorlik loyihalariga aylantirilishi mumkin bo‘lgan tarmoqlashuv maydoniga aylanadi. Uchinchidan, yetakchi universitetlarning diplomlari martaba o‘sishini osonlashtiradi va bitiruvchilarga ish beruvchilar va davlat tomonidan ishonch bag‘ishlaydi.

Tayyorgarlik yo‘nalishlarini tanlash ham davlatning ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatadi. STEM fanlari — fan, muhandislik, raqamli texnologiyalar asosiy fanlar qatoriga kiradi. Bularga energetika va “yashil iqtisodiyot”, tibbiyot va ta’lim, davlat boshqaruvi sohalari qo‘shilmoqda. Bu yerda aniq hisob-kitob bor: ushbu sohalar yaqin yillarda O‘zbekistonning global xaritadagi raqobatbardoshligini belgilab beradigan o‘sish nuqtalaridir.

Tanlov jarayonining shaffofligi va ochiqligi jamg‘armaning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib qolmoqda. “El-yurt umidi” jamg‘armasining 2025-yil birinchi ochiq stipendiya tanlovi doirasida qisqa muddatda my.gov.uz milliy tizimiga integratsiya qilingan maxsus onlayn ariza qabul qilish platformasi ishga tushirildi. Ushbu platforma byurokratik tartib-taomillarni sezilarli darajada qisqartirish, shuningdek, inson omili ta’sirini bartaraf etish imkonini berdi, bu esa korrupsiya xavfining oldini olish bo‘yicha samarali chora bo‘ldi.

Tanlov komissiyasi tarkibini shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi: a’zolarning kamida 50 foizi nodavlat tashkilotlar va xususiy sektor vakillari bo‘ldi. O‘qishni tamomlab, vazirlik va idoralarda ishlayotgan stipendiatlar ekspert sifatida ishtirok etdi. Suhbat jarayoni majburiy videoyozuv va Internet tarmog‘ida onlayn translyatsiya bilan ochiq formatda o‘tkazildi.

Xorijda ish yoki o‘qish bilan bo‘lib turgan nomzodlarga onlayn suhbatdan o‘tish imkoniyati yaratildi. Suhbat o‘tkazish sanasi oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlari kuniga to‘g‘ri kelgan taqdirda abituriyentlar murojaatlariga ko‘ra, suhbatni boshqa kunga ko‘chirishga ruxsat berildi.

Bunday choralar har bir munosib nomzod suhbatda o‘zini to‘liq namoyon etishi va texnik yoki vaqtinchalik cheklovlar tufayli o‘z imkoniyatini qo‘ldan boy bermasligini ta’minlashga qaratilgan.



Vatanga qaytish — ongli tanlov

Jamg‘arma mamlakatning asosiy vazirlik va idoralari bilan mustahkam aloqa o‘rnatmoqda. Davlat organlari nafaqat mutaxassislarni tanlashda ishtirok etadi, balki stipendiatlarni jalb qilishda ham tashabbuskorlik ko‘rsatmoqda. Ushbu yo‘nalishda samarali ishlash uchun bitiruvchilarning yagona raqamli ma’lumotlar bazasi yaratilmoqda. Bu stipendiatlarning o‘qish jarayoni, akademik yutuqlari va keyingi ishga joylashishini kuzatib borish imkonini beradi.

Jamg‘arma yordami faqat o‘qish davri bilan cheklanmaydi. Stipendiatlarning qaytishi va ularning kasbiy muhitga moslashishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jamg‘arma ishga joylashishga ko‘maklashadi, xorijda olingan bilim va ko‘nikmalar talab qilinadigan ish o‘rinlarini topishga yordam beradi, munosib mehnat sharoitlari, karyera imkoniyatlari va kasbiy o‘sishni ta’minlash uchun tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Muhimi, kasbiy muhitga qo‘shilish jarayoni o‘qish davridayoq boshlanadi. Masalan, bu yil AQSH va Buyuk Britaniyada tahsil olayotgan stipendiatlar o‘zimizda amaliyot o‘tab, startaplar, venchur investitsiyalari va raqamli texnologiyalar sohasida tajriba orttirdi. Bu ularga milliy voqelik bilan aloqani yo‘qotmaslikka va ta’lim bosqichidayoq O‘zbekistondagi kelajak kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi.

Biz vatanga qaytish mantiqiy va ongli tanlov bo‘ladigan tizimni yaratishga intilyapmiz. Bitiruvchilarga nafaqat stipendiya oluvchi, balki yangi bilimlar egalari, o‘zgarishlar harakatlantiruvchisi va mamlakatni modernizatsiya qilishning faol ishtirokchisi sifatida qaraladi.

Mintaqaviy ta’lim xabi

Jamg‘arma faqat “eksport uchun” ham ishlamaydi. O‘zbekistonni mintaqaviy ta’lim markaziga aylantirish rejalashtirilmoqda. Gap TOP-300 ga kiruvchi universitetlar bilan qo‘shma dasturlar tuzish, O‘zbekistonda xorijiy oliy o‘quv yurtlari filiallarini ochish, qo‘shni davlatlardan talabalarni jalb qilish haqida bormoqda. Ushbu strategiya ikki tomonlama samara beradi: O‘zbekistonning mintaqaviy rolini mustahkamlash va madaniy almashinuvni rag‘batlantirish.

Jamg‘armaning kelgusi yillardagi asosiy vazifasi hamkorlik geografiyasini kengaytirish va bitiruvchilarni milliy iqtisodiyotga integratsiya qilishning mustahkam yo‘llarini shakllantirishdan iborat.

Global hamkorlikning rasmiy mexanizmlari ishdan chiqayotgan bir davrda mutaxassislarning shaxsiy aloqalari va malakalariga e’tibor qaratilmoqda.

Bugun mamlakatimiz “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirayotgan bir paytda xorijda ta’lim olishga e’tibor qaratish hashamat emas, balki zaruratga aylanmoqda. Zero, faqat shu yo‘l bilan dunyoga moslashibgina qolmay, uni shakllantiradigan mutaxassislarni tarbiyalash mumkin.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi faqat iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash dasturigina emas. Bu davlatimiz rahbarining O‘zbekiston kelajagini jahon darajasidagi bilim va tajriba bilan qurollangan yoshlar bunyod etishiga qaratilgan strategik loyihasidir.

Yuksalish pallasi

XATIRCHILIK IZLANUVCHAN YOSHLAR

IMKONIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANMOQDA

Xatirchi tumanining Binokor mahallasida istiqomat qiladigan Suhrob Haydarov bolaligidan yog‘och o‘ymakorligi hunariga mehr qo‘ygan. Endi esini taniy boshlagan paytlari qo‘shnisining uyidan muttasil keladigan shovqin sababi haqida otasidan so‘ragan. Otasi esa qo‘lidan yetaklab, ularning uyiga olib chiqqan. Qo‘shnisi va shogirdlari oddiy yog‘ochdan turli buyumlar yasayotganini ko‘rib, shu hunarga qiziqib qoldi.



O‘sha kundan boshlab Suhrob darsdan bo‘sh vaqtida qo‘shninikiga otlanar, yog‘ochsozlarining ishini, turli mahsulotlarning tayyorlanish jarayonini soatlab kuzatar edi. Uning qiziqishini ko‘rgan usta ilk bora bolaning qo‘liga zarur uskunalarni berib, yog‘ochga dastlabki ishlov berishni o‘rgatgan. Yillar o‘tib, Suhrob hunarmandning haqiqiy shogirdiga aylandi va bu kasbning sir-asrorlarini puxta o‘rgandi.

Bir kuni mahalladagi hokim yordamchisi va yoshlar yetakchisining yo‘qlab kelishi uning yillar davomida ko‘ngliga tukkan orzusi amalga oshishiga yo‘l ochdi. Suhrobning biznes loyihasi ham “mahalla yettiligi”ga ma’qul tushdi va unga zarur ko‘mak berildi.

Bugun yog‘och o‘ymakorligi asosida tayyorlangan mahsulotlarga talab yuqori ekanini inobatga olib, Suhrob Haydarov imtiyozli kredit asosida hunarmandchilik faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Aholidan buyurtmalar tushmoqda, daromadi ham yaxshi. Kelgusida u tadbirkorlarga berilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, faoliyatini kengaytirish, o‘zi singari yoshlarni ish bilan ta’minlashdek katta rejalarni maqsad qilgan. Albatta, bu jarayonda davlat va yoshlar o‘rtasida mustahkam ko‘prik bo‘layotgan “mahalla yettiligi”, ayniqsa, yoshlar yetakchilarining alohida xizmati bor. Ular yoshlarni yurtimizdagi islohotlar va imkoniyatlardan xabardor qilib, yo‘lini topishiga ko‘maklashmoqda.

— Mahallamiz tuman markazida joylashgani tufayli asosiy drayveri ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdir, — deydi Xatirchi tumani Binokor mahallasidagi yoshlar yetakchisi Bahodir Hoshimov. — Ushbu yo‘nalishlarda mahallamizda ustoz-shogird an’anasi namunali tarzda yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa yoshlarni doimiy va barqaror daromadli ish bilan ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda. Hozir Suhrob kabi yoshlarning 10 nafari imtiyozli kredit asosida loyihalarini amalga oshirib, tadbirkorlik qilyapti. Bunday tashabbuskor yoshlar og‘ir toifadagi tengdoshlarini ham yoniga olib, ularni daromadli ish bilan band qilmoqda.

Xatirchi tumanida 217 mingdan ziyod kishi istiqomat qiladi. Ularning qariyb 100 mingi yoshlardan iborat. Tumanda ishsiz yoshlarning bandligini ta’minlash, ayniqsa, ularni tadbirkorlikka jalb etishga alohida e’tibor qaratilgan. O‘z navbatida, tashabbuskor yigit-qizlar loyihalari bilan ushbu yo‘nalishda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Misol uchun, Samarqand mahallasida yashovchi Shahnoza Qilicheva xonadonida kichik novvoyxona ochib, imtiyozli kredit asosida zarur uskunalar sotib oldi. Natijada oilasi ish bilan band bo‘ldi. Xarid qilingan zamonaviy jihozlar va non mahsulotlarini yetkazib berishga mo‘ljallangan avtomashina orqali daromadi ham oshdi, mushkuli ham oson bo‘ldi.

Farovon mahallasida yashovchi E’zoza Sulaymonova ham imtiyozli kredit evaziga oilaviy tadbirkorligini kengaytirib, parrandachilikni yo‘lga qo‘ydi. Aholi dasturxoniga sifatli va arzon parranda go‘shtini yetkazib berishni maqsad qilgan yosh tadbirkor mamlakatimizdagi imkoniyatlardan mamnun.

— Joriy yilda tumanimizdagi 270 yigit-qiz “Yoshlar daftari”ga kiritilib, ularga har tomonlama ko‘mak berish uchun 1 milliard 476 million so‘mdan ortiq mablag‘ sarflandi, — deydi Xatirchi tumani yoshlar ishlari bo‘limi boshlig‘i Akmal Tursunov. — Ushbu mablag‘ hisobidan 2 yosh doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi. Yana 12 nafariga tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun subsidiya asosida mehnat qurollari olib berildi. Shuningdek, 1 nafariga imtiyozli kredit, 3 nafariga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun mablag‘ ajratildi. Bundan tashqari, 190 yigitning to‘lov-shartnoma puli, 17 nafarining safarbarlik chaqiruv rezervi to‘lovi, 3 nafarining turar joy ijarasi, 11 nafarining turizm obyektlariga sayohati uchun mehmonxona va yo‘l xarajati to‘lab berildi.

Tumanda iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha ham qator ishlar bajarilmoqda.

— Yoshlar orasida xorijiy tillarni o‘rganishni keng targ‘ib qilish uchun “Ibrat farzandlari” loyihasiga 9781 yigit-qiz jalb etildi. Ularning 799 nafari chet tillarni bilish darajasini belgilovchi sertifikatlarni qo‘lga kiritdi, — deydi Akmal Tursunov. — “Kelajak kasblari” loyihasi orqali esa 59 yosh zamonaviy kasblarga o‘qitildi. Ular uchun 139,2 million so‘m sarflandi. Shuningdek, maxsus dastur asosida 28 nafar yosh nemis tiliga o‘qitildi. Bundan tashqari, joriy yilda xalqaro imtihon tizimlarida yuqori natijaga erishgan 22 yigit-qizning 34,6 million so‘mlik imtihon xarajati qoplab berildi. Hozir tumanda ikkita o‘quv markazi va filiallarida xatirchilik yoshlarga chet tillar hamda zamonaviy kasblar o‘rgatib kelinmoqda.

Aholining bandligi va barqaror daromadga ega bo‘lishini ta’minlashda qishloq xo‘jaligi sohasi ham samarali yo‘nalishlardan biridir. Prezidentimizning 2024-yil 5-apreldagi “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta’minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra tumandagi 1340 yoshga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun 600 gektar yer ajratildi.

Istiqlol mahallasidagi 8 gektar yer 12 nafar yoshga berilgan. U yerda “Bir kontur — bir mahsulot” tamoyili asosida kungaboqar yetishtirish yo‘lga qo‘yilgan. Har bir gektardan yiliga 15-20 million so‘m daromad topayotgan yoshlar mavsumiy ishlar orqali fuqarolar bandligini ham ta’minlamoqda.

Albatta, yerga ketmon urgan bilan mo‘l hosil olib bo‘lmaydi. Dehqonchilikning ham o‘ziga xos sirlari, agrotexnik talablari bor. Ob-havo injiqliklari yoki shu kabi murakkab vaziyatlarda, tabiiyki, yoshlarga ustoz kerak. Ushbu hududda namanganlik dehqonlar bilan ustoz-shogird an’anasi yo‘lga qo‘yilgani sababli yerga qadalgan har bir urug‘dan ko‘zlangan hosil olinyapti.

— Bu yerda dehqonchilik bilan shug‘ullanib, mahalliy aholiga ham tajribamizni o‘rgatamiz, — deydi namanganlik Abbos Xolboyev. — Yerni shudgor qilishdan boshlab, hosilni yig‘ib olgunga qadar tavsiyalarimiz bilan ko‘mak beramiz. Ayniqsa, yoshlar uchun bu maslahatlar juda zarur. Ekinlarga o‘z vaqtida ishlov berish, agrotexnik ishlarni yoshlar tez o‘zlashtirmoqda. Bu kabi hamkorlik yigit-qizlarning qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan mo‘l hosil olib, yaxshi daromad topishida muhim omil bo‘lmoqda.

Xatirchi turizm hududiga aylanib borayotir. Tumanga kelayotgan xorijlik va mahalliy sayyohlar uchun qulay sharoit yaratilmoqda. Bu jarayonda ham yoshlar faollik ko‘rsatmoqda. Tumanga kirishdagi keng maydonda bunyod etilayotgan “Sohilbo‘yi” dam olish maskani aynan yosh avlodning kreativ g‘oyalari, zamonaviy dizayni va arxitekturasi asosida qurilyapti. Aholiga xizmat ko‘rsatish obyektlari, savdo komplekslari ham auksion orqali yosh tadbirkorlarga berilib, ularning bandligini ta’minlashga e’tibor qaratilmoqda. Bu ham ishbilarmonlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun qulay imkoniyat.

Bugun yoshlarning iqtidori va qiziqishiga ko‘ra tanlov ko‘lami keng. Muhimi, intilish, harakat bo‘lsa, kifoya. Bu kabi imkoniyat va sharoitlardan samarali foydalanayotgan xatirchilik yoshlarning turli sohalarda erishayotgan yutuqlari fikrimizning yaqqol dalilidir.


G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz — yuz.uznews — yuz_official — yuz.uz_news — yuz.uz

Yagona oilada

TINCHLIK, AHILLIK VA HAMJIHATLIK — FAROVONLIK ASOSI



Mansur MUSAYEV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, siyosiy fanlar doktori

Mustaqillik har bir xalq va millat uchun eng ulug‘ qadriyatdir. Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida bu ulug‘ bayramni “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan shior ostida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar, tuman, qishloq hamda ovullarda munosib nishonlash, shuningdek, “Ona diyor — ranglar jilosida”, “Vatan uchun yashaylik!”, “Eng ulug‘, eng aziz” kabi an’anaviy ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish belgilangan.





Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugun insoniyat mutlaqo o‘zgacha muhit, yangicha talab va ilgari kuzatilmagan xavf-xatar hamda tahdidlar kuchaygan olamda yashamoqda. Shu bois, dunyo miqyosida tinchlik va barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash tobora dolzarb vazifaga aylanib boryapti.

O‘zbekistonda tinchlik, xalqimiz o‘rtasidagi ahillik va hamjihatlikni asrash doim eng ulug‘ va bebaho qadriyat bo‘lib kelgan. Zero, yurtimiz zaminida qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan etnik xilma-xillik noyob ijtimoiy hodisadir. U bugun yangi O‘zbekiston sharoitida yangicha ma’no-mazmun va an’analarga ega bo‘lmoqda.



Bu borada davlatimiz rahbari shunday degan edi: “Hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, millatchilik, diniy murosasizlik bosh ko‘tarmoqda. Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda. Mana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osoyishtalikning mustahkam kafolati, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirishning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda”.

Keyingi yillarda xalqaro maydonda davlatlarning bir-biriga bo‘lgan o‘zaro ishonchi susayib bormoqda. Albatta, mana shunday murakkab bir sharoitda hayotning o‘zi bizdan yurtimizda hukm surayotgan o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, totuvlik va birdamlik muhitini yanada mustahkamlashni yangi bosqichga ko‘tarishni talab etadi.

Bugun jahonda bag‘rikeng yurt sifatida o‘zining yangi qiyofasini namoyon etayotgan, haqli ravishda dunyoda e’tirof qilinayotgan jonajon vatanimizda 130 dan ortiq millat va elat, 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv, ahil-inoq, hamjihatlikda yashab kelmoqda. Shuningdek, 157 ta milliy-madaniy markaz va 42 ta do‘stlik jamiyati faoliyat ko‘rsatyapti. Millat va elatlar o‘z madaniyati, tili, hunarmandchiligini rivojlantirib, bir-birini o‘zaro boyitishga, yagona oila tuyg‘usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Davlatimiz rahbarining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ham milliy-madaniy markazlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish belgilangan.

Mamlakatimizdagi ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlari o‘zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg‘iz va turkman tillarida olib borilmoqda. Qardosh tilli maktablarda o‘qiyotgan farzandlarimiz davlat hisobidan darslik va badiiy adabiyotlar bilan ta’minlanyapti. Ayniqsa, “O‘zbekiston — umumiy uyimiz” degan ezgu g‘oya barcha milliy madaniy markazlarning shioriga aylangani diqqatga sazovor.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, respublikamizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, do‘stlik va birdamlik muhiti O‘zbekistonning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishga zamin yaratmoqda. Ma’naviyatimizning uzviy qismi — xalqimizga xos etnik madaniy va diniy bag‘rikenglik ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Buni o‘zga din vakillari ham e’tirof etadi. Ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli jamiyatni oqilona boshqarish sohasida O‘zbekiston muhim tajriba to‘pladi. Bizning bu boradagi faoliyatimiz dunyo miqyosida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Mazkur omil yurt tinchligi va taraqqiyotiga, umuminsoniy madaniyat va ma’naviyat rivojiga bevosita xizmat qiladi.

Bugun dunyo siyosatida “Markaziy Osiyo ruhi” degan ibora va voqelik paydo bo‘lgani barchamizning katta yutug‘imizdir. Joriy yil mart oyida O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Tojikiston chegaralari o‘zaro tutashgan nuqtada “Do‘stlik” stelasi o‘rnatilgani mintaqamizdagi yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari yanada mustahkamlanib borayotganining yorqin ifodasi bo‘ldi. Ezgulik, tinchlik va osoyishtalik omili hisoblanmish bag‘rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish orqali mamlakatimizda ta’lim, ilm-fan, ma’naviyat va ma’rifat, millatlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari o‘zining yangi bosqichiga chiqdi.

2024-yilning 16-noyabr kuni Toshkentda “Bag‘rikenglik haftaligi” doirasida Din ishlari qo‘mitasi, Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi hamda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi hamkorligida “Yangi O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Ushbu konferensiyadan ko‘zlangan maqsad O‘zbekistonda tinchlik, osoyishtalik omillaridan biri bo‘lgan diniy bag‘rikenglik, dinlararo totuvlik va konfessiyalararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash borasidagi ishlarni o‘rganish, istiqboldagi vazifalarni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va shu yo‘nalishda o‘z yechimini kutayotgan masalalarni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish edi.

Mazkur xalqaro anjumanda AQSH, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Turkiya, Malayziya, Portugaliya, Armaniston, Rossiya, Tojikiston, Qozog‘iston kabi davlatlardan mutaxassislar, UNESCOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi vakillari, dinshunos ekspertlar, islomshunoslar, milliy madaniy markazlar, turli diniy konfessiya vakillari, shuningdek, jamoat tashkilotlari, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professor-o‘qituvchilari qatnashdi.

Ushbu konferensiyada qatnashgan Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘zbekiston yeparxiyasi rahbari Mitropolit Vikentiy: “Prezident Shavkat Mirziyoyev barcha odamlar tinchlik va hamjihatlikda yashashlarini ta’minlashini qo‘llab-quvvatlab, targ‘ib qilib kelmoqda. Bu esa diniy bag‘rikenglikning muvaffaqiyat kalitidir. Keyingi yillarda O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatga tobora ochilib bormoqda. Turli millatlar o‘rtasida ezgulik, totuvlik, bag‘rikenglik va do‘stlik siyosatini tarannum etayotgan mamlakat sifatida dunyoda tan olinmoqda. Mazkur konferensiya esa diniy bag‘rikenglikning o‘zbekona modeli sifatida e’tirof etilmoqda”, deya ta’kidladi.

Shuningdek, ushbu konferensiya haqida Rossiya Yevangel-Lyuteran cherkovi arxiyepiskopi Vladimir Provorov tomonidan bildirilgan quyidagi fikr ham e’tirofga molikdir: “O‘ylaymanki, mazkur konferensiya O‘zbekistondagi turli millat va elat vakillarining tinch-totuv, umumjamiyat rivoji yo‘lidagi sa’y-harakatlariga hamohang. O‘zbekiston Prezidentining millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik tamoyillariga asoslangan siyosati mamlakatdagi turli millat vakillarini bir maqsad sari birlashtirmoqda. Bu yangi O‘zbekistonning insonparvarlik islohotlaridan biri sifatida xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda”.

O‘z navbatida, mazkur konferensiyada qatnashgan Turkiyaning Saljuq universiteti Saljuq tadqiqotlari instituti mudiri, professor Mustafa Demirji O‘zbekistondagi 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta konfessiya vakillarini bir maqsad yo‘lida birlashtirish, konfessiyalararo muloqot va diniy bag‘rikenglik borasida O‘zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan siyosatdan ijobiy taassurot olganini alohida bildirib o‘tdi: “Ushbu nufuzli anjuman orqali turli millat vakillari Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik borasida olib borilayotgan islohotlardan mamnun ekanliklarini izhor qilmoqdalar. Tarixan ushbu makon Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan, turli millat va xalqlar bir yerda jamlangan yurt hisoblanadi. Bu esa o‘lkaning sivilizatsiyalar tutashgan manziliga aylantirgan. Bunday yurt dunyoning boshqa joyida topilmaydi”.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari: “Dunyoning turli mintaqalarida milliy va diniy asosda turli nizolar davom etayotgan hozirgi o‘ta tahlikali sharoitda yagona O‘zbekiston g‘oyasi asosida eng katta boyligimiz — yurtimizdagi osoyishtalik va barqarorlik, o‘zaro hurmat va totuvlik muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bilim-ma’rifat, kasb-hunarlar egasi etib tarbiyalash, inklyuzivlik tamoyillarini chuqurlashtirish borasidagi ishlarimizni kelgusida ham izchil davom ettiramiz”, deya qayd etgani alohida ahamiyat kasb etadi.

Zero, xalqlarning turli-tuman urf-odatlari, madaniyati va qadriyatlarini tan olgan holda bag‘rikenglik muhitining ta’minlanishi, avvalo, mamlakatda ahillik va osuda hayot hukm surishida muhim o‘rin tutadi.

Hunarmandlik

JONDOR TANDIRLARI

MILLIY PAZANDALIK SAN’ATIMIZNI NAMOYISH ETISHGA XIZMAT QILADI



Jondorlik G‘aybulla Mo‘minov tirikchiligini tandirchilik bilan bog‘lagan, shu hunar ortidan baraka topayotganlardan.
36 yildirki, tuproq bilan tillashib kelayotgan hunarmand har bir tandiriga birdek mehr va ishlov beradi. Aslida, qaysi sohada bo‘lmasin, inson yaxshi nom chiqargani ma’qul. Qolaversa, mijozni yo‘qotmaslik kerak. O‘zbek xonadonlariga doimo tandir kerak bo‘ladi. To‘g‘ri, tandirning yaxshi-yomon ekanini darhol bilish vaqt talab qiladi. Mabodo ko‘ngildagidek chiqmasa, qaytarib berib bo‘lmaydi. Hunarmandning aytishicha, qo‘l uchida tayyorlangan tandir bir yil, puxta-pishiq yasalganlari esa 20-30 yil xizmat qiladi. Qahramonimiz mijozlariga shunday mahsulot yetkazishga harakat qiladi.



— Xonadonimizda 20-30 xil o‘lchamdagi tandirlar tayyorlanadi. Go‘sht uchun alohida, somsa, patir yopishga mo‘ljallangan maxsus, non uchun odatdagidek tandirlar bor, — deydi G‘aybulla aka. Shundan so‘ng usta bilan gurungimiz qizib ketdi. U tandirchilikni akasidan, shuningdek, qishloqdagi yagona ayol hunarmanddan o‘rganganini aytadi.

Jondor tandirlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Hunarmand yashayotgan Ushot qishlog‘i esa tumanning qo‘l mehnati rivojlangan hududlaridan. Jondor tandirlari bilan mijozlarni o‘ziga bog‘lab olgan usta tandirchilar bor bu yerda. Milliy hunarmandligimizning ko‘plab turlarini davom ettirayotgani bilan qishloq sayyohlar e’tiborini ham torta boshladi. Shuning uchun unga turizm qishlog‘i maqomi berilgan. Tuprog‘ining sho‘rligi tandirchilikda qo‘l keladi. Shu ma’noda, tandirsozlikni otameros hunar sifatida davom ettirayotganlar ko‘p. Tarkibida yetti xildan ziyod mineral bo‘lgan bu zamin tuprog‘idan yasalayotgan mahsulotni qo‘shimcha vositalar, masalan, hayvon terisi, yungi yanada chidamli qiladi. Ular tuproqqa shunchaki aralashtirib yuborilmaydi, oldin yaxshilab yuviladi, quritiladi.

“Bunday ishonch, e’tirof, chiroyli nom tadbirkorga ko‘tarinki kayfiyat beradi. Endi haqiqiy “O‘zbek noni uyi”ni ham mahalliy, ham chet ellik sayyohlar ko‘z oldida jonlantiramiz. Buning uchun imkonimiz yetadi. Aslida, bugun qo‘lida hunari bor, tadbirli, yangilikka intilgan odam darrov e’tiborga tushyapti.

G‘aybulla akaning hisobi bo‘yicha barcha xarajati bilan taxminan 200-300 ming so‘mga tayyor bo‘lgan tandir 500-600 mingga sotiladi. “Mehnati og‘ir bo‘lsa-da, xarajati kamligi bois, tandirchilikdan yaxshi daromad topish mumkin”, deydi usta.

Mahalladagi hokim yordamchisi Behzod Jumayev hunarmandning shijoati, tadbirkorligi qo‘ni-qo‘shnilarda ham qiziqish uyg‘otayotganidan xursand.

— Yakka tartibdagi tadbirkorimiz faoliyatini yanada kengaytirib, chorvachilik yo‘nalishida ham sayyohlar e’tiborini tortishni rejalashtirib turibdi. Bu borada, albatta, kerakli yordam beramiz. Shu kunlarda imtiyozli kredit rasmiylashtirish harakatidamiz. Sayyohlar serqatnov bo‘lib borayotgan qishlog‘imizda ularga sigir sutini sog‘ib olishdan tortib, sut mahsulotlari tayyorlashgacha bo‘lgan jarayon ko‘rsatib beriladi. Bu bilan Ushotga chet elliklarni yanada ko‘proq jalb qilishga erishsak, ajabmas, — deydi hokim yordamchisi.



Ha, bugun mahalla bankiri, ijtimoiy xodim, hokim yordamchisi kabi fidoyilar xalq orasiga kirib, muammolarga yechim topyapti, yoshlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatyapti. Yaqinda Behzod Jumayev kabi mas’ullar sa’y-harakati bilan “Do‘stlik” ordeni sohibi G‘aybulla Mo‘minov xonadoniga “O‘zbek noni uyi” maqomi berildi. Bu bilan Buxoroda milliy qadriyatlar va an’anaviy oshxona madaniyatini keng targ‘ib etishga xizmat qiladigan madaniy maskanlar yana bittaga ko‘paydi.

Tandir yasaladigan xonadonga nega bunday nom berildi deyishingiz tabiiy. Zero, eshitgan paytimiz bizda ham shunday savol tug‘ildi. Gap shundaki, “O‘zbek noni uyi”ning asosiy vazifasi qishloqqa keladigan sayyohlarga milliy non pishirish an’analarini namoyish qilish, yurtimizga xos mehmondo‘stlik madaniyatini yanada keng yoyishdan iborat. Chunonchi, bu yerga kelgan mehmonlar nafaqat turli tandirlarni, balki har xil nonlarning tayyorlanishini ham ko‘radi. Qadimiy tandirlarga non yopish jarayoniga guvoh bo‘lish hamda ustalardan milliy non turlari va tarixi haqida ma’lumot olish ular uchun juda qiziq bo‘ladi. Qolaversa, rizq-nasiba ramzi bo‘lmish nonning uyi — tandir. Nonning uyini qurayotgan, xonadonlarga rizq ulashayotgan xonadonni ham chinakam non uyi deyish mumkin-da.

— Bunday ishonch, e’tirof, chiroyli nom tadbirkorga ko‘tarinki kayfiyat beradi. Endi haqiqiy “O‘zbek noni uyi”ni ham mahalliy, ham chet ellik sayyohlar ko‘z oldida jonlantiramiz. Buning uchun imkonimiz yetadi. Aslida, bugun qo‘lida hunari bor, tadbirli, yangilikka intilgan odam darrov e’tiborga tushyapti. Shunday ekan, biz ham hunarimizni yoshlarga o‘rgatish barobarida moddiy tomondan ularni qo‘llab-quvvatlashga harakat qilyapmiz. Maktab o‘quvchilarini ham darsdan bo‘sh payti bekor yurmasin, oilasiga foyda keltirsin deb tandir tuprog‘ini teptirib, obdan chiniqtiramiz. Ayni kuchga to‘lgan, qoni jo‘shqin payti emasmi, ko‘pchiligida tandirchilikka qiziqish uyg‘onadi. Ota-onalari ham xursand. Axir hunarli kishi atrofga ham rizq ulashadi, yomon yo‘llarga yurmaydi, — dedi G‘aybulla aka suhbat yakunida.

Tandiri bor hovlilar qanday fayzli bo‘lsa, tandir yasalayotgan joylar ham shunday shukuhli. Shuning uchun ham Buxoroga yo‘limiz tushsa, albatta, Jondorga o‘tib, “O‘zbek noni uyi”dan chiqayotgan 20-30 xil o‘lchamdagi tandirlarni ko‘rib kelishni, hayrati oshgan sayyohlar bilan suhbatlashishni niyat qildik.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946.
34830 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05